




**NAZORA BEKOVA
MEHRINISO CHORIYEVA**

**ABDURAHMON
TAMKIN BUXORIY**

**Toshkent
“Navro’z” nashriyoti
2021**

UO'K: 623.33.241

КБК 84.3(5Ў36)

Qo'lingizdagi adabiy-ilmiy monografiyada XIX asrning oxiri XX asar boshlarida Buxoroda yashab, o'zidan katta ma'naviy, adabiy meros yodgor qoldirgan zullisonayn shoir Abdurahman Tamkin Buxoriyning asarlari xususida mulohaza yuritiladi. Shoirning g'azal, qit'a, fard, masnaviy, ruboiy va hikoyatlari keng g'oyaviy badiiy tahlil etiladi.

Kitob sahilarida Tamkin Buxoriy ijodiyoti ustoz va zamondosh shoirlarning ohorli she'riy misralari bilan qiyosan o'rganiladi.

Monografiyada Tamkin Buxoriyning hayoti va adabiy merosini tahlil qilishda qiyosiy-tipologik, kontekstual tahlil biografik usullardan unumli foydalanilgan.

Ushbu ilmiy asar barkamol avlodning axloqiy-ma'naviy kamoli yo'lida xizmat qiluvchi asarlar sirasiga kirib, yana bir buxorolik ijodkorning ijod manbaidan ularni bahramand etadi. Kitob mumtoz adabiyot ixlosmandlari, o'rta, professional va oliy ta'lim dargohlari talabalariga mo'ljallangan.

Масъул муҳаррир:

Ғайрат Муродов, филология фанлари доктори, профессор

Тақризчилар:

Ҳилола Сафарова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси
доценти, филология фанлари номзоди.

Гуландом Юнусова, БухМТИ ўзбек тили ва адабиёти
кафедраси мудири, фалсафа фанлари номзоди.

**Рисола БухДУ Илмий-техник кенгашининг 2020 йил 29
ноябрдаги навбатдан ташқари йиғилиш қарори билан
нашрга тавсия этилган.**

ISBN 978-9943-6591-6-2

MUNDARIJA

Kirish	4
I bob. XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi tarixiy sharoit va adabiy muhit.....	13
1.1. Buxoro amirligidagi tarixiy sharoit va bu haqida ma'lumot beruvchi manbalar	13
1.1. XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro amirligida siyosiy-iqtisodiy vaziyat va madaniy hayotning o'ziga xos jihatlari.....	17
1.3. Mazkur davrda Buxoro xonligining turli yillarida yashagan ijodkorlarning ijod mahsuli va ilmiy tadqiqot xarakteridagi asarlar	23
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	32
II bob. Abdurahmon Tamkin Buxoriyning hayoti va adabiy merosi	33
2.1. Abdurahmon Tamkin ijodini o'rganishdagi asosiy manbalar	33
2.2. Abdurahmon Tamkinning hayot yo'li va faoliyati haqidagi izlanishlar	37
2.3. Abdurahmon Tamkinning adabiy merosi va ilmiy asarlari	40
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	43
III. Abdurahmon Tamkin asarlaridagi poetik til, g'oya, davr nafasi va shoir ijodining rang -barangligi.....	44
3.1. Tamkin ijodida g'azal janri va uning poetik tili	44
3.2. Abdurahmon Tamkin ruboiylarida davr nafasi va hasbi-hol motivlari	56
Xulosa.....	87

KIRISH

“Har bir xalq o‘z tarixiga ega,
uni o‘rganish esa shu xalq
farzandlaring o‘tmish va
kelajak oldidagi burchi”.

Sh.Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ilgari surgan har bir g‘oya mohiyatida xalqimizning farovon va osuda turmush tarzi bilan birga uning mohiyatan kimligini anglash, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lga munosib millat va xalq bo‘lishini ta‘minlash masalasi yotadi. Tarixni va tarixiy ilmni juda chuqur bilgan yurtboshimiz bugunni va kelajakni unga tayangan holda qurishimizni, asrlar qarida jimgina yotgan adabiy merosimizni bilishga, anglashga, anlatishga va dunyoga tarannum etishga undamoqda, go‘yo.

O‘zbek xalqi g‘oyatda boy adabiyot tarixiga va ulkan adabiy merosga ega. O‘rta Osiyolik boshqa qardosh xalqlar qatori o‘zbek xalqi ham juda qadimdan ko‘plab moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratib, insoniyatning madaniy taraqqiyotiga munosb hissa qo‘shgan. Zero, ko‘p asrlik milliy-adabiy tajriba va yangicha tafakkur mahsuli bo‘lgan adabiyotning barcha tur va janrlarida, odam va olamni badiiy kashf etishdagi teranlik yanada chuqurlashyapti, shakliy-uslubiy rang-baranglik, o‘ziga xoslik yorqinroq namoyon bo‘la boshlayapti. Ularda inson va hayotni butun murakkablikda ko‘rish, zohiriy va botiniy olamni, ruhiyatni xolis va ta‘sirchan tasvirlash, falsafiy-psixologik talqin va majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar jarayonida milliy ma‘naviyat jamiyatda har tomonlama komillikka erishish tuyg‘ularini tarbiyalashga xizmat qilib, “Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu avvalo xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor”¹ sifatida badiiy adabiyot va ma‘naviyatning,

¹ Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. . Ўзбекистон Республикаси

ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotida benihoya ulkan o'rin tutishini yana bir karra tasdiqlaydi.

O'tmishning buyuk va fozil kishilari biz uchun juda boy meros qoldirganlar. Jumladan, adabiyotimizda qofiya, radif, vazn haqida asarlar yozildi, tazkira va bayozlar, badiiy asarlar asosida lug'atlar tuzildi. Chunonchi, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon", "Majolis un-nafois", Boburning "Boburnoma", Muhammad Xoksorning "Muntaxab al-lug'at"i, Fazliy Namangoniyning "Majmuayi shoiron", Qori Rahmatulla Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" asarlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Sa'diy, Lutfiy, Hofiz, Bedil, Mashrab, Ravnaq, Raqim, Nishotiy, Mujrim, Shavqiy, Xiromiy, Imlo, Vola, Vali, Nodim, Noqis, Miriy, Ahqar, Hoziq, Zavqiy, Shavqiy, Tabibiy va Avazlar o'tganlarkim, ularning ayrimlari hali hanuz xalqimiz uchun ochilmagan xazinadir. XX asrda o'zbek adabiyotida bir guruh olimlardan iborat ilmiy jamoa yetishib chiqdi. Natijada o'tmish adabiy merosimizni o'rganish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari yaratildi. Bularga, V.Zohidovning "A.Navoiyning g'oya va obrazlar dunyosi"¹, "O'zbek adabiyoti tarixidan"², akademik V.Abdullaevning "XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti"³, A.Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti"⁴, M.Shayxzodaning "Ustodning san'atxonasida"⁵, A.Hayitmetovning "Alisher Navoiy lirikasi"⁶, H.Sulaymonovning "Alisher Navoiy musiqasining tekstologik tadqiqotlari"⁷, N.Mallaev⁸, V.Abdullaev⁹ va G'.Karimovlarning¹⁰ uch tomdan iborat "O'zbek adabiyoti

Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси // Халқ сўзи. – 2017, 4 август.

¹ V.Zohidov. Мир идей и образов Алишера Навои. Тошкент.1961.

² V.Zohidov. O'zbek adabiyoti tarixidan. Тошкент. 1961

³ V.Abdullayev. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti, doktorlik dissertatsiyasi. Samarqand. 1958.

⁴ A.Qayumov. Qo'qon adabiy muhiti. Toshkent. 1961

⁵ M.Shayxzoda. "Ustodning san'atxonasida", "Sharq yuldizi", 1965, № 10, 1966, №5.

⁶ A.Hayitmetov. "Navoiy lirikasi". Toshkent. 1961.

⁷ H. Sulaymonov. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои. Автореферат докторской диссертации. Ташкент.1964

⁸ N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 1-darslik. Тошкент.1963

⁹ V.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi, 2-darslik. Тошкент.1964

¹⁰ G'. Karimov. O'zbek adabiyoti tarixi, 3-darslik. Тошкент.1966

tarixi”¹ kitoblarini va bir qator olimlarimiz –R.Vohidov, M.Abdurahmonov, M.Qosimova, T.Qoraev, T.Norov, R.Fozilova, R.Orzibekov, Sh.Sirojiddinov, I.Salohiddinovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Lekin bugungi davr talabiga quloq tutadigan bo’lsak, biz-o’z munosib bahosini kutib yotgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan adabiy xazinani xalqimizga, elimizga, qolaversa, yoshlarimizga yetkazib berishimiz lozim va bu tadqiqotning dolzabligi va zaruratini belgilaydi.

O’zbek adabiyotshunosligida XX asr oxiri XXI asr boshlarida yuz bergan va yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy o’zgarishlar natijasida dunyo va inson munosabatlarini chuqurroq idrok etish, xalqimizning milliy poetik tafakkuri, betakror an’ana va qarashlari mujassam etilgan so’nggi yillar o’zbek adabiyoti tarixini o’rganish jarayonida kechgan transformatsiyalar, yangilanishlarni yoritish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o’zbek adabiyoti oldiga qo’yilayotgan vazifalarni bajarishga to’liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, adabiyot tarixi badiiyatini va xalqimizga noma’lum bo’lgan ijodkorlar ijodini chuqur o’rganish bilan bog’liq maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, adabiyotshunoslikda poetik til va uslub, ijodkorning badiiy tafakkur tarzi, individualligi va ramziy talqin muammolari haqida bir nechta ilmiy tadqiqotlarning yaratilganligi ahamiyatlidir. Inchunun, XX asr o’zbek adabiyotining ma’rifatparvar va erksevar shoiri Abdulhamid Sulaymon o’g’li – Cho’lpon “Adabiyot yashasa, millat yashar” degan otashin da’vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o’tgan teran ma’noli bu so’zlar bugun ham o’z ahamiyati va qimmatini yo’qotgan emas, yoki sohirqalb xalqimiz adabiyotni “Odamshunoslik fani” deganida nechog’lik haq edi. Bilhaq, adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

¹ M.Qosimova. “Husni dil” syu. asarlar va Nishotiyning shu nomdagi dostoni, kand. dis-ya, S-1969, 3-bet.

So'nggi davr o'zbek adabiyotida, ayniqsa, adabiyot tarixida inson ongi va tafakkur tarzida yuz bergan va yuz berayotgan barcha o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda, tarixiy asarlar keng miqyos kasb etmoqda, ularda mumtoz va jahon adabiyoti tajribasiga muvofiq keluvchi tasavvufiy-falsafiy hamda modernistik ohanglar mavjudligi kuzatilmoqda, tarixiy asarlarni o'rganishdagi ifoda usullari yangilanmoqda. O'zbek adabiyoti tarixini o'rganish jarayonida kechgan shakliy-uslubiy izlanishlar, xalqimizga noma'lum ijodkorlar ijodidagi poetik uslub va ijodkor individualligi masalalarini tadqiq etish dissertatsiya asosiga qo'yilgan muammoning dolzarb va zaruriyligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-47-97-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etish to'g'risida"gi, 2017 yil 17 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2006 yil 25 avgustdagi PQ-451-son "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 13 sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, 2017 yil 18 apreldagi PQ-28-29-son "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi, 2018 yil 28 dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda 2019-yil 19-martdagi yoshlarga oid "5 ta tashabbus" shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda

innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

O'zbek adabiyotida Buxorolik zullisonayin ijodkor Abdurahmon Tamkin haqida tadqiqotlar yaratilgan emas.

Abdurahmon Tamkin haqidagi malumotlar XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoja Ne'matullo Muxtaram kabi tazkiranavislarining asarlarida keltirilib, ularda buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma'lumotlar, aniqrog'i, haqiqatni buzib ko'rsatuvchi noto'g'ri ma'lumotlar uchraydi, - deb yozadi – tojik olimi Asqar Jon Fido.¹

Darhaqiqat, ushbu tazkiralalar Tamkin haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. Chunki o'zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o'rganilmagan, imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz. Demak tojik adabiyotida A. Tamkin ijodi qisman o'rganilgan

Shuningdek, A. Tamkin haqidagi ma'lumotlar Ahmad Donishning asarlarida uchraydi, u shoir ijodiga yuqori baho bergan "Tamkin az shuaro'i muqaddami on zamon budand"² (Tamkin o'z zamonasining peshqadam shoirlaridan edi).

Shuningdek, shoirning hayoti haqidagi ma'lumotlar uning shogirdi Jafarovning qo'lyozmalarida ham berilgan³.

Biroq hozirgacha Abdurahmon Tamkin hayoti, ijodi va u yaratgan turli janrdagi asarlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, istiqlol davri talablari asosida maxsus o'rganilmagan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod etgan A. Tamkin ijodini o'rganish, uni ilmiy jihatdan talqin etish va xalqimizni yana bir boy ma'naviy xazinadan bahramand etish ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot Buxoro Davlat Universiteti O'zbek adabiyoti kafedrası rejasida BuxDU ilmiy tadqiqot ishlari tarkibiga kiritilgn.

¹ A.J.Fido . Dushanbe. 1974-yil "A.Tamkin risolasi". 3-bet

² A.Donish. Daftari Musabbada. Dastnavisi ganjinai dastnavisthoi sharqii. AF.RSS.O'zbekiston tahti raqami 2779, var.47

³ Ja'farov Said binni Ja'far-ul-Hanafiy Texnobodiy. Rudakiy nomli til va adabiyot instituti xodimi. Umrining oxirini Dushanbeda o'tkazgan

Buxoro adabiy maktabining peshqadam vakillaridan biri Abdurahmon Tamkinning hayoti va ijodini yoritish, o'rganish va shoirning muayyan ilmiy-nazariy, ma'rifiy-axloqiy qarashlarini umumlashtirishdan iborat:

- O'zbek adabiyoti tarixida XIX asr va XX asr boshlarida Buxoroda shakllangan adabiy muhit va uning siyosatini ko'rsatish;
- XIX-XX asr Buxoro adabiy muhitidagi ayrim vakillari ijodiga doir ma'lumot va mulohazalarni, turfa uslubiy izlanishlarni tahlillarda yoritish;
- davr va ijodkor, ijodiy individuallik masalasini ochib berish;
- Abdurahmon Tamkinning hayotiga oid turli xil qarashlarni asoslash, yakdillikka erishish;
- Abdurahmon Tamkinning ijodiy merosi haqida, uning xalqona obrazli ifoda usullarida jonli xalq tiliga xos unsurlar va zullisonayinlik kabi hodisalarni o'rganish;
- Tamkin asarlarida adabiy an'analar va yangiliklar darajasining tahliliga erishish;
- Abdurahmon Tamkin asarlarini adabiyotshunoslik fani asosida baholashga erishish.

Tadqiqot mavzusini yoritishda biografik tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, kontekstual, psixi analitik, etnografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ob'yektiga XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod etgan zullisonayin shoir Abdurahmon Tamkinning hayoti va ijodi tanlandi. Asosiy e'tibor xalqimizga Buxoro adabiy muhitining (XIX-XX) peshqadam vakili Abdurahmon Tamkinning turli janrdagi asarlari va ibratli hayot yo'li haqidagi ma'lumotlarni yetkazish tahliliga qaratildi.

Shuningdek, o'rni bilan A.Tamkinning turli janrdagi asarlari fanda ba'zi mualliflarning shu davrda yaratilgan ayrim asarlari qo'shimcha ob'yekt vazifasini bajardi.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan A.Tamkin adabiy faoliyatini o'ziga xos uslub va poetik til, unda

davr va qahramon tasviri, ijodiy individuallik, ijtimoiy tuzum ruhiyati va majoziy falsafiy mushohadakorlik, g'azallar, ruboiylar va qasidalar tilining xalq tiliga yaqinligi, adabiy aforizm, hajviy ruh va an'analarga ergashish masalalari tashkil qiladi.

XX asr boshlaridan o'zbek adabiyoti tarixi vakillari ijodi bo'yicha qator tadqiqotlar siyosiy -tarixiy asosda o'rganilib, o'zbek adabiyoti tarixi fanining yuzaga kelishiga asos bo'lganligi isbotlangan.

O'zbek adabiyoti tarixi namunalarining o'rganilishidagi taraqqiyot yo'li XX asrning birinchi choragidayoq ishlab chiqilgan va o'zbek adabiyoti tarixi namunalarini tadqiqot ko'lamini kengaytirish va arxivlashtirish yo'nalishlarini kengaytirish XX asr boshlaridayoq ko'rsatib berilgan.

A.Tamkin ijodining turli qirralari va janrlarini o'rganishga doir ilmiy- nazariy qarashlarining ahamiyati baholangan hamda A.Tamkin ijodining uch til asosidagi o'rni, badiiy takomilidagi roli asoslangan.

Abdurahmon Tamkin Buxoriyning hayoti va adabiy me'rosi o'zbek adabiyotida ilk bor tatqiq qilingan va XIX-XX asr boshlaridagi Buxoro adabiy muhitining maktab darajasida ekanligi va uning izchil badiiy tadriji ko'rsatilgan.

Bu davr adabiyoti vakili A.Tamkin Buxoriy hayoti va ijodiy merosi haqida ilmiy-qiyosiy ma'lumotlar asoslangan. Tamkin Buxoriyning "Mo'liston" va "Ganji shoigon" madhiyalari. 1914-yilda yozilgan "Jaroid" asari va devoni haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilgan. Shorning qasida , g'azal, muxammas, masnaviy, ruboiy, hajv, qit'a, fard, chiston, muammo janrlarida ijod qilganligi isbotlangan.

Tamkinning 3 tilni-forsiy, arabiy, turkiy tilni bilganligi va bu tillarda go'zal asarlar yaratganligi haqida nazariy va amaliy umumlashmalar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalaridan mustaqillik davri o'zbek adabiyoti tarixini yaratishda, adabiyot nazariyasi fanining nasr, janr, uslub, badiiy til, adabiy sintez, an'ana masalalarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari va xulosalari amaliy ahamiyatga ham ega. Ulardan oliy ta'lim muassasalarida "Hozirgi adabiy jarayon", "Yangi o'zbek adabiyoti", "Adabiyotshunoslikka kirish" "O'zbek adabiyoti tarixi" fanlari bo'yicha darslik va qo'llanmalar yaratishda, an'anaviy adabiyot takomiliga bag'ishlangan maxsus kurs, seminarlar o'tkazishda hamda talabalar, magistrantlar va tayanch doktorantlar tomonidan malakaviy bitiruv ishlari, dissertatsiyalar, monografiyalar yozishda, shuningdek, o'rta maktab, litsey va kollejlarda o'zbek adabiyoti tarixi va ma'naviyati darslarida foydalanish mumkin:

- XX asrda o'zbek adabiyoti tarixi ko'lamida ko'plab ijodkorlar va allomalar ijodini o'rganishga katta e'tibor berildi. Biroq tarix zarvaraqlarida hali o'z ijod olami o'z tadqiqini kutib yotgan shoirlarimiz borki, ulardan biri A.Tamkin Buxoriy hisoblanib, mustaqillik sharofati va yurtboshimiz olib borayotgan oqilona siyosat tufayli yana bir so'z san'atkorining hayot yo'li, ijodiy olami va u yaratgan go'zal asarlar xalqimiz ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi;
- Shuningdek, "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'lamida qilingan bir qator ishlar qiyosiy o'rganilib A.Tamkinning ijodiy merosi o'z davri nuqtayi nazaridan ustozlarga ergashish va novatorlik ishlari asosida analiz va sintez qilinib, ilmiy va nazariy xulosalar o'z ifodasini topdi;
- Tamkin yashagan davr Buxoro adabiy muhitining "maktab darajasida" shakllangani haqidagi fikrlar asoslanib, bu davr adabiy muhiti yangi davr adabiyotining shakllanishi uchun asos bo'lganligi asoslandi;
- Tamkin yashagan davr an'anaviy adabiyotning oxiri va yangi o'zbek adabiyotining boshlanish davri deb izohlanadi va Savdo, Mirzo Sirojiddin Hakim, Vozeh, Somiy, Sadri Ziyo, Mujrim Obid, Shavqiy, Xumumiy, Vola, Joniy kabi ijodkorlar qatori A.Tamkin ijodi ham o'ziga xos o'rin tutishiga erishildi;

- Tadqiqot natijalari o'laroq, Tamkinning uch tilni bilgani va bu tillarda ijod qila olgani, bugunning eng dolzarb masalasiga- til o'rganishga- e'tibor jihatidan ham diqqatga sazavordir;

Natijada, xalqimiz o'zining yana bir ajdodining yaratgan asarlari va ibratli hayot yo'lidan ogoh bo'ldi.

I BOB. XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI TARIXIY SHAROIT VA ADABIY MUHIT

Kirish qismida tadqiqot mavzuining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar hamda pisola tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

1.1. Buxoro amirligidagi tarixiy sharoit va bu haqida ma'lumot beruvchi manbalar

Bu davr siyosiy-iqtisodiy vaziyati va madaniy hayoti haqida ma'lumot beruvchi manbalar turli avtorlar qalamiga masub bo'lib, xarakter e'tibori bilan bir necha guruhga bo'linadi:

- Buxoro xonligining turli davrlarida yashagan tarixnavislarning asarlari;
- G'arbiy Yevropa hamda rus sayyohlarining memuarlari, tazkira tipidagi asarlari; - tazkira, bayozlar;
- ilmiy tadqiqot xarakteridagi asarlardir.

Buxoro tarixida Mang'itlar sulolasi davri haqida ma'lumot beruvchi dastlabki manbalardan Abdulkarim Buxoriyning 1830-yilda yozilgan yo'l taassurotlari, Mirzo Shams Buxoriy asarlari, Muhammad Ya'qub "Gulshan ul-muluk"ining (1831) so'ngi qismi, Muhammad Vafoiy Karminagiy va Domulo Olimbek binni Niyozqulibeklarning "Tuhfat ul-xoniy"si, Ahmad Donish va Mirzo Abdulazimi Somiy risolalarini ko'rsatish mumkin.

Sho'rolar hokimyatining ilk kunlaridan boshlab mang'itlar hukumronligi davrigacha Buxoro tarixiga oid ilmiy-tadqiqot ishalari yaratila boshladi. Bo'lot Soliyev, Sadriddin Ayniy risolalari, P.P.Ivanovning bir qator ilmiy asarlari diqqatga sazavordir.

Shuningdek, XX asr Buxoro xonligidagi adabiy hayot haqida tasavvur hosil qiluvchi muhim manbalar esa qo'yozma devon va bayozlar hamda XIX asrning ikkinchi yarmi –XX asr boshlarida tuzilgan tazkiralardan iborat ekanligi ko'rsatib berilgan. Zero, bu davr shoirlaridan bir nechtasining devonlari bizga ma'lum bo'lsa ham, ayrim devon tuzmagan yoki hozirga qadar devoni ma'lum bo'lmagan ijodkorlar merosining bir qator namunalari o'nlab qo'lyozma bayozlar vositasida bizgacha yetib kelgan.

Chunonchi, Qori Rahmatulloh Vozehning "Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-as'hob" (1871) nomli tazkirasida mazkur davr adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Keyinroq yaratilgan Hashmatning "Tazkirat ush-shuaro", Afzali Pirmastiyning "Afzalut-tazkor fi zikr ush-shuaro val ash'or", Hoji Nematullo Muhtaramning "Tazkirat ush-shuaro", kabi tazkiralari ham ushbu davr adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni kengaytirishga yordam beradi.

XIX – XX asr boshlari Buxoro adabiyotining ba'zi masalalari yoki ayrim vakillari ijodiga oid ma'lumot va materiallar o'zbek, tojik olimlarining darslik, qo'llanma, xrestomatiya va o'nlab ilmiy ishlarida uchraydiki, mavjud ishlar ikki qondosh va jondosh tilda yaratilgan adabiyotning muhim namunalari, ayrim atoqli ijodkorlari haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalardir.

XIX asrda Buxoro xonligi O'rta Osiyodagi mayda feodal mulklarni birlashtirish asosida yuzaga kelgan o'zbek xonliklari (Buxoro, Xiva, Qo'qon) orasida o'ziga xos mavqega ega edi. Buxoro mamlakatiga qarashli yerlar Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rossiya Pomiridan to Xivaning keng dashtlarigacha cho'zilib boradi. Rossiya va Buxoro o'rtasidagi bo'lgan urushdan oldin 1868-yili va bolsheviklar hukumati tasarrufida bo'lgan (1920) chog'da Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh. G'arb tarafdin Sirdaryo bilan hamda Qo'qon xonligi bilan, Janubdan esa Afg'oniston, sharqdan Turkman o'lkasi va Xiva davlati bilan tutashgan edi. O'sha davrda Buxoroda 2-3 yarim million aholi yashagan.Uning yer maydoni 225000 km² bo'lgan.Buxoro davlati 28 beklikka bo'lingan. Jumladan: Nurota,

Qorako'l, Qaboqli, Choharjo'y, Karki, Boysun, Hisor, Dehnav, Qo'rg'on (tepa) Boljuvon, Ko'lob, Qabodiyon, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Qarotegin, Kalif, Burdoliq, Shahrisabz kabilardir.

Qadimiy madaniy yodgorliklar mavjud shaharlar hali hanuz ma'lum va mashhurdir.

1783-yildan to 1920-yilga qadar Buxoroda Mang'itlar sulolasi hukimronlik qildi. Chunonchi, 1783- 1800-yillar Amir Shohmurod; 1800-1826 – yillar Amir Haydar; 1826-1860-yillar Nasrulloxon; 1860-1885-yillar Amir Muzaffar; 1885-1910-yillar Amir Abdulahad va 1910-1920-yillar Amir Said Olimxon davlatni boshqardi. Ana shu yillarda Buxoro va Qo'qon xonligi orasidagi kelishmovchilik fojiaiy tus oldi.

O'zaro nizolardan xabardor bo'lgan Angliya va rus hukumati harbiy va boshqa xil mutaxassislikdagi josuslarni yubora boshladilar. Masalan: 1825-yil Murk Fort va Trebek nomli josuslar Buxoroga keldilar. 1830-1833-yillarda Aleksandr Bernis nomli diplomat – ayg'oqchi Buxoro va Murg'obda bo'ldi. Savdo uchun rus hukumati 1820-yilda Negri, Meyindorf, Eversman degan kishilarni Buxoroga yubordi.

Ular Buxorodan bitta singan shamdon va singan oftoba hamda sopoldan yasalgan singan tavoqni o'z inperatorlariga etib, O'rta osiyoliklarning mana shulardan boshqa ilmiy hech narsasi yoq. Agar biz nafis to'qilgan gazlamalarimizni va boshqa chiroyli buyum hamda armiyaga kerakli boshqa anjomlarni yuborib turmasak, ularning holiga voy, ya'ni ular dag'al to'qilgan o'zlarining bo'zlarini va beburd choriqlarini kiyolmaydilar degan ma'nolarni berishlari, 1832-1842-yillar Afg'onistonda Ingliz kolonizatorlariga qarshi kurashning keskinlashib ketishi O'rta Osiyoda Rus hukumati mavqeyining ko'tarilishiga sabab bo'ldi ¹.

Ahmad Donish g'azab bilan ta'kidlaganidek, Buxoro amirlari yuksak e'tiqod va ilm-fan markazlari sifatida shuhrat qozongan Buxoro bilan Samarqand sha'niga shu qadar katta isnod

¹ O'z SSR tarixi. S.P.Talstov va b. tahriri ostida. I tom, 2-kitob. Toshkent. O'z SSR. F.A.nashriyoti,1956-yil

keltirdilarki, (Amir Nasrullo davri ko'zda tutilyapti), bu narsa tarix sahifalaridan hech qachon o'chmaydi.

Amir Muzaffarning o'g'li amir Sayyid Abdulahad 1885-1910 yillar Buxoro amirligi taxtini boshqardi. Abdulahad 14 yoshidan boshlab Karmana beki etib tayinlangan. Rus sayyohlarining ma'lumotlariga ko'ra u Karmanada juda oddiy kun kechirgan. 1885-yil 4-noyabrda amir Muzaffarni Buxoro arkida oq kigizga o'tirg'izib, taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tdi.

Amir Abdulahad sayohat qilishni yaxshi ko'rgan. U turli yillarda Moskva, Sankt-Peterburug, Kiyev, Odessa, Yekaterinaslov, Boku, Tiflis, Botumi, Sevastopol, Bog'chasaroy kabi shaharlarda bo'lgan. Amir har yili Kavkazda, Qrim yoki Yaltada dam olgan. Uning hukmronligi davrida qiynoqlar, o'lim hukmi va eng dahshatli jazo, Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etilgan. Amir Abdulahad davrida amirlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo'llari qurilishi, savdo faol rivojlantiriladi.

Abdulahad amirlikdagi harbiy kuchlarga alohida e'tibor bergan. Yoshlik chog'idayoq bo'lajak amir o'z garnizonida harbiy mashqlar o'tkazib, Karmana qal'asini yaxshi harbiy holatda tutgan. 1895 yildan boshlab Buxoro amirligida militsiya xizmati yo'lga qo'yilgan. Keyinchalik ham amir Abdulahad o'z qo'shinini harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko'pgina ishlarni amalga oshirgan.¹ Lekin uning hur va ilg'or fikrlari va amalga tadbiq etgan ishlari atrof xonliklarda yetilgan siyosiy bosh-boshdoqlik uchun yetarli emas edi.

Bu parokandalikdan foydalangan rus hukumati o'z askarlarini- XIX asrning o'rtalarida- Xiva, Qo'qon xonliklarining shimoliy chegaralariga keltirib qo'ydi. O'rta Osiyo xonliklari uchun o'z mustaqilligini saqlab qolishdek mas'uliyat real bo'lib qolgan bir sharoitda ham Buxoroning qo'shni xonliklar bilan munosabati keskinligicha qola berdi.

Buxoro bilan Qo'qon xonligi o'rtasidagi chegara tumanlari uchun kurash esa mazkur territoriya (Xo'jand va O'ratepa) 1866-

¹ Internet ma'lumoti. Buxoro tarixi. Abdulahadxon davri.

yil Rossiya qo'shib olgungacha davom etdi. Shunday qilib, XIX asrning 60-yillaridan boshlab, ya'ni Toshkent va Xo'jand shaharlari ham Rossiyaga qo'shib olinishi bilan Buxoro xonligi siyosiy hayotining inqirozli bosqichiga qadam qo'ya boshladi.

Buxoro mamlakati, garchi, Rossiya davlati himoyasida bo'lgan bo'lsa-da, lekin u o'zining yarim mustaqilligini (Vassall) saqlab qolgan edi.

Amir Sayyid Olimxonning "Buxoro xalqining hasratli tarixi" degan kitobida keltirilgan ushbu fikr ham buni tasdiqlaydi: "1868-yil Buxoro bilan Rusiya o'rtasida tuzilgan qarorga binoan Rusiya fuqarolari Buxoro amirligida soliq to'lashdan ozod edi, lekin ular Buxoro bozorlarida o'zlarining tijorat mollarini sotganlarida sotilganning yuzdan ikki yarim foizini Buxoro hukumatiga berishlari shart edi".

Buxoro 1920-yildan o'z erki mustaqilligidan butunlay judo bo'ldi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, (892-903) Somoniylar tashabbusi bilan Buxoro poytaxt bo'ldi va buyuk shaharlar qatoridan o'rin oldi. To 1920-yilga qadar Buxoroga alohida nazar bilan qaralib, ikkinchi Makka deb ta'riflanar edi. Ming taassufki, sho'rolar hukumati Islom dunyosining Sharifi Buxoroni oddiygina "Buxoro"ga aylantirdi. Ushbu shahar balogardoni Bahovuddin qasrini otxona qildi.

Oллоhga shukurki, Buxoro yana jahonga yuz tutdi, o'z mavqeini tikladi.

Bu ishlarning barchasi oqilona siyosat, hamda davlat rahbarining tadbirkorligi va fidoiyligi tufayli amalga oshdi.

1.1. XIX asr va XX asr boshlarida Buxoro amirligida siyosiy-iqtisodiy vaziyat va madaniy hayotning o'ziga xos jihatlari

Buxoro davlatining qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari, uning ekonomikasi va ijtimoiy hayotida sezilarli rol o'ynay boshladi. Ayniqsa, Rossiya bilan savdo munosabatlarining kengaya borishi madaniy hayotda ham oldingi asrlarga nisbatan siljish ro'y berishiga olib keldi.

Sho'ro davrida yaratilgan ayrim asarlarda Buxoro xonligidagi madaniy hayot haqida aytilgan ko'pgina bahstalar fikrlarni uchratish mumkin. Chunonchi, P.P.Ivanov ocherklarida: "Mang'it amirlari intellektual saviyasining pastligi diniy taassubning avj olishi va dunyoviy ilmlar hamda madaniyatning ba'zi bir tarmoqlarining keng rivoj topishiga monelik qilar edi¹". Yoki, "Mamlakat poytaxti bamisoli bir monastirni eslatadiki, u yerda diniy aqida va odatlarga amal qilinayotganligini nazorat qilib turish go'yo hukumatning asosiy vazifasidek tuyuladi"²- degan Y.K.Meyendorf so'zlari odamning zardasini qaynatadi. To'g'ri, o'z yurtodoshlarimizning ishlarida ham shunga yaqin fikrlar ko'plab uchraydi. Lekin ular, zamona zayli bilan shunday ish tutishga majbur bo'lganlar. Ona xalq farzandlari xatosini kechiradi. Biroq, o'zga millat vakili aytgan bu fikrlar ...Buxoro xalqi qolaversa, Movaraunnahr xalqi uchun tahqir va haqoratdir. Axir, bu ulug' tuproq ne-ne daholarni yetkazmadi. Axir, Ivanov, bilim saviyasi past degan Buxoro amirlaridan biri Sayyid Olimxon o'n uch yoshida barcha bilimlarni o'rganib bo'lib, 1893-yil Peterburgga o'qish va o'rganish uchun borib, yeti yilda o'zlashtirishi lozim bo'lgan dasturni uch yilda o'zlashtirib qaytgan edi-ku! Yoki, Meyendorf nazarida monastirga o'xshatilgan Buxoro sho'rolar davrida o'rgimchak to'riga o'ralib qolgandek edi. Mana endi bu qobiqlar yakson qilinib, Buxoro jahonga yuz tutdi.

XVIII asrning oxirlari va XIX asrga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Ayniqsa, ilgari davrlarda shakllangan maktab va oliy ta'lim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaladi. Boshlang'ich ta'lim beruvchi maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud bo'lib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, Qur'onning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

¹ P.P. Ivanov. Ocherki.str.215.

² Е.К.Мейендорф. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М. 1975. стр154

XIX asr Buxoro va xonlikning boshqa shaharlarida bir qator madrasa, masjid va boshqa binolar qurilib, ularda xalq ustalarining yuksak zakovati o'z qirralari bilan namoyon bo'lgan. Bu davrda diniy ta'lim o'qitish sistemasida yetakchi o'rin tutardi. O'qish ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich maktab, ikkinchisi –esa madrasalardan iborat edi. Ularda o'qish muddati qat'iy belgilanmagan. Agar maktab davri 6-15 yosh orasiga to'g'ri kelsa, madrasada o'qish davri har bir talabaning qobiliyatiga bog'liq holda, 8 yildan 15-20 yilgacha davom etardi. Madrasalarda musulmon dini va huquqi bilan birgalikda juda keng bilim berilgan, talab ham kuchli bo'lgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud edi. Madrasalarda o'qitish igarigi davrlarda bo'lganidek uch boqichda, 1) past qadam, 2) miyona (o'rta) qadam va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa o'qituvchilari-mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari, talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, ta'mirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablag'lar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar odatda hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan ko'p hollarda pishiq g'ishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ularning birinchi qavatida machit, qiroatxona va kutubxonalar, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar joylashgan.

Madrasa talabalari diniy bilim bo'lgan Qur'oni Karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, xandasa(matematika) kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham ta'lim olganlar. Shunga qaramasdan, bu davrda madrasalarda diniy-axloqiy ta'limga asosiy e'tibor qaratilib, dunyoviy ta'lim berish nisbatan orqada qolgan edi.

Bu davrda amirlikning Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, G'uzor, Kattaqo'rg'on, Dehnov kabi ko'plab shaharlarida masjid va madrasalar bunyod etilgan. Buxorodagi Domullo Tursunjon madrasasi, Xudoydod me'moriy (masjid,madrasa va sardoba) majmuasi,Ernazar elchi madrasasi, Qarshidagi Ali va Mir

Muhammad madrasalari shular jumlasidandir. Undan tashqari bu davrda shaharlarda ko'plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar, karvonsaroylar, hammomlar, yo'llar bo'ylarida sardobalar bunyod etilgan.

Biroq, Ashtarxoniylar hukumronligi davridan boshlab ijtimoiy-madaniy hayot rivojining qudratli to'sig'iga aylangan diniy mutaassiblik mang'itlar hukumronligi davrida yanada kuchaydi. Bu omil, birinchi navbatda, aniq tabiiy fanlarning rivojlanishiga imkon bermadi. Chunki, diniy mutaassiblik namoyandalari bu fanlar sohasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday kashfiyotni Xudoning irodasiga shak keltirish deb hisoblardilar. Shuning uchun ham uch o'zbek xonligida, jumladan, Buxoro amirligida aniq tabiiy fanlar qisman rivojlanmadi. Shu tufayli, bu davrda asosiy asarlar tarix, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasida yaratilganligi bejiz emas edi. Buxoroning XIX asr birinchi yarmida ijod etgan tarixchi olimi Muhammad Yaqub ibn Doniyolbiy Buxoriy edi. U "Gulshan ul-muluk" ("Podshohlar gulshani") degan asr yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib:

birinchi qismi Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayoniga bag'ishlangan;

ikkinchi qismida esa Markaziy Osiyoning XVIII va XIX asrlardagi tarixi bayon etilgan.

Shuningdek, XIX asrda yozilgan Mirzo Shams Buxoriyning "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Ho'qand va Qoshg'ar" ("Buxoro, Qo'qon va Qoshg'arning ayrim voqea - hodisalari bayoni") kitobi va Mir Olim Buxoriyning "Fathnomayi sultoni" hamda Muhammad Hakimxonning "Yilnomalar to'plami" asarlari tariximiz uchun muhim manbalar hisoblanadi.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning ko'pchiligi hukmron mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'rta asrlar tarixnavisligidagi an'analar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o'tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar. Xususan, Mullo Ibodullaning "Tarixi amir Haydar", Muhammad

Sharifning “Dostoni amironi mang’it”, Mir Olim Buxoriyning “Fathnomai sultoni”, Mirzo Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mang’itiya”, “Dahmai shohon”, Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining “Toju tavorih”, Ahmad Donishning “Mang’itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola”, Mirzo Sodiq Munshiyning “Mang’it hukmdorlari tarixi” kabilar shular jumlasidandir.

Shunga qaramay, san’atning ko’pgina sohalari rivojlandi. Chunonchi, o’z ajdodlari an’alarini puxta egallagan mohir me’mor, muhandis va naqqoshlar yetishib chiqdi. Nafis misgarlik va zargarlik buyumlari, ayniqsa, zar bilan naqishlangan liboslar tayyorlash ancha taraqqiy etdi. Kitobat ustalari va mohir xattotlar san’ati ham o’ziga hos mavqega ega edi. Buxoroda xalq teatrining o’ziga xos ko’rinishi bo’lmish qiziqchilik yoki masxarabozlik ancha mashhur bo’ldi. Amir huzuridagi ikkita hazzol ayrim qozi va oqsaqollarning poraxo’rligi haqida ham hazil yo’sinida tanqidiy gaplar ayta olar edilar. A. Donishning ma’lumotiga ko’ra, Amir Muzaffar davridagi bayram marosimlarda qiziqchi -muqallidlar maxsus liboslarda eshaklarga teskari minib shahar a’yonlari huzurida ayrim qozi va raislarning hukm chiqarish usullarini kulguli qilib ijro etishgan. Barcha tantanali marosimlar, sayillar dorbozlar ishtirokisiz o’tmagan.

Ayniqsa, Buxoroda xattotlik va miniatura san’ati yaxshi rivojlangan edi. Bu davrda rassomlar asosan qo’lyozmalarni naqshli bezash bilan shug’ullanib, ko’proq diniy mavzudagi kitoblarni bezata boshladilar. Bu sohaning qator yetuk bilimdonlari zamonasiga yarasha yodgorlik qoldirdilar. Chunonchi, shu davrida ijod qilgan Mir Mas’um Olamiyon “Axloqi Muhsiniy” kitobini hamda Sa’diyning she’riy asrlarini rasm bilan bezaydi.

Mir Sodiq Jondoriy esa qo’lyozma kitoblarga lavhalar, Sa’diy va Hofiz asarlariga turmush manzaralari tasvirlangan rasmlar ishlagan. Qo’lyozmalarni badiiy muqovalagan.

Yirik olim, faylasuf, shoir Ahmad Donish (1827-1897) 20 yil mobaynida Buxoro saroy kutubxonasida xattot va rassom bo'lib ishlagan.

Ahmad Donish astronomiya, tibbiyot, riyoziyot, ma'morchilik va musiqadan tashqari xattotlikni, rassomlik hamda rang berish san'atini ham o'rgangan edi.

Ahmad Donish ko'chirgan, bezagan yoki rasm ishlagan qo'lyozmalar ichida "Shoh darvish" (1849-yil), "Ajoyib at-tabaqot" (1847) va boshqa asarlar buning dalilidir.

Buxoroning musiqa san'ati qo'shni xalqlarda ham mashhur bo'lib, xususan maqom ustalarining mahorati boshqa o'lkalar san'at muxlislarining ham e'tiborini qozongan. Xonlikda musiqa san'atining tarqalish ko'lami va xususiyatlari masalasida ikki holat ko'zga tashlanib turadi.

Xalq musiqasining tarqalishi asosan, qishloqlar hayoti bilan bog'liq bo'lsa, klassik musiqa – maqom bilan bog'liq an'analar poytaxt Buxoroda markazlashgan edi. Natijada, Buxoro yuksak ustozona musiqa san'atining markazlaridan biri bo'lgan.

Chunonchi, XVIII asr oxirlarida Buxoroda vujudga kelgan "Shashmaqom" buning yorqin dalilidir.

Buxoro Shashmaqomi, Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlaridan iborat bo'lib, 250 dan ortiq har xil shakldagi kuy va ashula namunalaridan tashkil topgan.

Maqom ashulalarining she'riy matni uchun Rudakiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur, Nodira va Mashrab singari turkiy va forsiy tilli mumtoz shoirlarning lirikasidan namunalar tanlangan. Shashmaqom og'zaki tarzda ustoz-shogird an'anasi shaklida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Buxoro xonligining katta hududidagi qabilalar orasida musiqa bilan bog'liq ijrochilik – baxshilar san'ati nihoyatda mashhur bo'lgan.

Talantli xalq ijrochi badihago'ylari asrlardan – asrlarga o'tib kelayotgan folklor an'analarini bu davrda ham davom ettirib, yanada boyitganlar.

Buxoroda klassik musiqa hamda professional muzikant va hofizlar san'ati bilan bir qatorda, raqs, hikoyago'ylik va har xil kitoblar o'qish san'ati ham keng keng tarqalgan.

Buxoroning oxirgi amiri Sayyid Olimxon madaniyat va ma'rifat borasida shunday xotirlab yozadi: "Buxoroyi sharif arkinining yaqinida Baloyi havz deyilgan joyida o'z nomimga bir ibodatga masjid bino qildirdim. Buxoro minorasning past tomonida bozorning ichki tomonida o'z nomimdan Dor ul-ulum- Bilim uyi bo'lgan bir madrasa qurdirdim, har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim kechagi ham o'z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim. Bozor va yo'l obodligiga ko'p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo'ldi, unga zeb-ziynat va tartib intizom o'rnatdim"¹.

Demak, XIX asr va XX asrning boshlarida ham Buxoro madaniyati taraqqiyot pog'onalarida bo'lgan. Buni, adabiy muhit haqidagi fikrlarimiz ham tasdiqlaydi.

1.3. Mazkur davrda Buxoro xonligining turli yillarida yashagan ijodkorlarning ijod mahsuli va ilmiy tadqiqot xarakteridagi asarlar

Ashtarxoniylar hukmronligining oxirgi davrlarida "sekinlashgan" adabiy hayot mang'it amirlari davrida hayotdagi siyosiy-iqtisodiy oqim bilan bog'liq ma'lim o'zgarishlar ta'sirida yana rivojlana boshladi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida butun o'lka bo'lab xalq dostonchiligi keng quloch yozdi. Bu davrda G'o'ro'g'li turkumidagi dostonlardan tashqari "Tohir va Zuhra", "Bahrom va Gulandom" (Sayqaliy), "Gulfarah", "Xurshid va malikai Dilorom", (Rizoiy) kabi o'nlab xalq dostonlari xalq orasida keng tarqaldi. Bu o'rinda venger sharqshunosi German Vamberining quyidagi fikrlarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir: "O'zbekistonda bunday romanlar son -sanoqsiz darajada ko'p bo'lib, o'zbeklar, ayniqsa shu xildagi asarlarni g'oyatda sevadilar... Bunday

¹ A.S.Olimxon. Bux.x.hasratli tarixi. O'z.SSJ. "Fan" nashriyoti. T.1991-yil, 8-bet

asarlarda o'zbeklarning milliy his va iftixorlarini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina maxazlarni topish mumkin"...

Yozma adabiyotda ham XVIII asrning oxiri XIX asr va XXasr boshlariga qadar o'zbek va tojik adabiyoti tarixida munosib iz qoldirgan ijodkorlar maydonga keldi. Bular, Savdo, Mirzo Sirojiddin Hakim, Vozeh, Somiy, Sahbo, Abdurahmon Tamkin, Sadri Ziyo va boshqalar.

Buxoro davlatidagi adabiyot, aholining etnik tarkibi va an'alarining ta'siri bilan bog'liq holda, o'zining alohida tomonlariga ega. Shulardan eng muhimi adabiyotning til jihatidan ma'lum darajada tabaqalanganligidir. Buxoro shahri va xonlikning tojiklar yashaydigan o'lkalarida asarlar, asosan, tojik tilida yozilgan. Buxoroda tojik (qisman arab) tilining yetakchi o'rinda bo'lishi, an'ananing- ijodkorlarning o'qitish ishlari mazkur tillarda olib boriladigan madrasalar yoki rasmiy doiralar bilan bog'langanligi bilan ham izohlanadi, albatta.

XIX asr Buxoro adabiy hayotida bir necha epik asarlar yaratilgan bo'lsa-da, lirika yetakchi o'rin tutadi. Bu davr she'riyatida lirikaning o'n ikkitacha turi uchraydi. Lekin eng faol janrlar – g'azal, muxammas, masnaviy, qasida, qit'a hisoblanadi. Ruboiy, soqiynoma, fard, chiston, musammatning boshqa turlari ayrim shoirilar devonidagina uchraydi.

XVI –XVIII asrlarda epik janrlarning mavqei birinchi o'ringa o'tgan bo'lsa, bu XIX-XX asr boshlariga kelib, g'azal yana poeziyaning yetakchi janriga aylandi va o'z imkoniyatlarini keng namoish qila boshladi.

Bu davr g'azallarini mohiyat jihatidan ikkiga bo'lish mumkin: aksar g'azallarda shu janr tarixidagi barqaror an'analarning sezilarli izlari ko'zga tashlanib tursa;

bir qator g'azallar real sharoit bilan bog'langan kechinmalarning aniq ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

Chunonchi, ishq va u bilan bog'liq kechinmalar tasviri, shuningdek, o'z ahvolidan shikoyat, jamiyat nosozliklaridan norozilik, oliyjanob xislatlarni ulug'lash bu davr g'azallarining

asosiy mavzuini tashkil etadi. Xullas, gʻazalchilikda umumiy mavzular bilan bir qatorda, ijodkorning shaxsiy taassurotlari va kechinmalari bilan aloqador boʻlgan aniq sheʼrlar ham anchagina paydo boʻldi. Shuningdek, bu davr gʻazallari orasida Alisher Navoiy ijodiyotida taraqqiy etgan hodisa –maʼlum syujetga ega boʻlgan sheʼrlar ham uchraydi. Poetik tasvirga bir tomondan anʼananing (tojikcha sheʼrlarda Hofiz, Bedil, turkiy sheʼrlarda Navoiy va Fuzuliy kabi klassiklarning) taʼsiri katta ekanligi sezilib tursa, ikkinchi tomondan, har bir ijodkorning maʼlum darajada originallikka intilishini va buning ayrim samaralari koʻzga tashlanadi. Bu davrda Buxorodagi oʻzbek-tojik gʻazalchiligining umumiy holati Mujrim, Shavqiy, Shukuriy, Vola, Joniy, Savdo, Tamkin, Xumuliy, Shohin, Muztarib, Bebok, Hayrat, Ayniy, Somiylar kabi zullisonayin shoirlarning ijodiy faoliyati bilan bogʻlangan.

XIX asr oxirlariga kelib Buxoro adabiy muhitida masnaviy ham, gʻazal, muxammas, qitʼa singari asosiy poetik janrlardan biriga aylandi. Bu davrda masnaviyning ikki xil koʻrinishi- doston shaklidagi yirik turi hamda syujet va obrazlardan xoli boʻlgan namunalari yaratildi.

Humuliyning “Shoh va Gado”, “Shayx Musaxon Dahbediyning tarjimai holi”, Xiromiyning “Chor davesht”, “Toʻtinoma”, “Raʼno va Zebo” asarlari yirik masnaviy doston namunalari hisoblanadi. Bu janrdan muhim siyosiy-ijtimoiy hamda taʼlimiy qarashlarni badiiy ravishda ifoda etishda anʼana syujetlardan mahorat bilan foydalanilgan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ikki tilda asar yozgan shoirlar ijodiga Bedil, Hofiz bilan bir qatorda, Navoiy va Fuzuliy anʼanalarining taʼsiri nihoyatda kuchli boʻlgan.

Zullisonayin shoirlar uchun fors-tojik va turkiy shoirlardan Hofiz, Jomiy, Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Muqumiy merosi katta mahorat namunasi rolini oʻynagan boʻlsa ham, biroq har bir ijodkorning ulardan ayrimlariga alohida munosabatda boʻlib, unga koʻproq ergashganlari koʻzga yorqin tashlanib turadi.

Masalan, Abdulqodirxo'ja Savdoning tojik tilidagi ijodida ko'proq Bedilning ta'siri seziladi. Biroq Savdo ijodining o'ziga xosligi shundaki, u Bedilning murakkab til uslubi ta'siriga berilmay, sodda, xalqqa tushunarli shaklda yozish uslubini rivojlantirdi. Masalan, u Bedilning:

Biyo ey gardi jannat, xirmoni husn,
Ba peshi mo bialfshon, domani husn.

(Kel, ey jannat g'ubori, tengsiz go'zallik, qarshimizda silki husn etagin), -g'azaliga quyidagi nazirani bog'laydi:

Biyo ey, jannat, xirmoni pul,
Ba peshi mo bialfshon domani pul.

(Kel, ey, jannat(huri)pul xirmoni;

Bizning oldimizga etagingni qoq, to'k pul xirmonini)

Shuningdek, Savdo dunyoqarashi va uslubiga o'zbek klassik shoiri shoir Boborahim Mashrab ijodi ham kuchli ta'sir o'tkazgan. Savdo bir she'rida:

"Qalandar Mashrabam, boboi rindon ast ustodam" (Qalandar Mashrabman, rindlar bobosi ustozim), -deydi. Shoir tojik tilida yozgan she'rlarida o'zbek xalq maqollari va so'zlaridan ustalik bilan foydalanadi.

Ya'na, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan zullisonayin shoir va tarixchi Mirzo Abdulazim Somiyning Navoiy, Fuzuliy an'analarini davom ettirib yozgan o'zbekcha taxmis va naziralari Buxoro shoirlari bu klassiklarning asarlaridan yaxshi xabardor bo'lganlarini, ularni o'z ustozlari deb hisoblaganliklarini ko'rsatadi. Navoiyning:

Vahki mug'bacha har dam chekibon bodai nob,
Qo'zg'alib arbadasidan bu ko'hna dayri xarob, -

matlaai bilan boshlanadigan g'azaliga Somiy o'n bir bandlik muxammas bog'laydi. Birinchi bandi:

Ishq vodusig'a men xastai zaif ma'ob,
Jismi zorimg'a junun shiddatidin turli azob,
Nogoh ul sho'x chiqib zulfi siyohini tarob,
Vahki mug'bacha har dam chekibon bodai nob,
Qo'zg'alib arbadasidan bu ko'hna dayri xarob

Fuzuliyning “Ramazon oldi chekib shohidi may pardaya ro” misrasi bilan boshlanuvchi g’azaliga Somiy bog’lagan sakkiz bandlik muxammasi mazmun va shakl jihatidan an’anaviy dunyoviy lirikaning yaxshi namunalaridan biridir:

Gardishi dahri balo toshini yog’dirdi qamu,
Bodai shodlig’i etdi etdi falak zoli og’u,
O’tti sha’bonu kelib boshimiza yuz qayg’u,
Ramazon o’ldi chekib shohidi may pardaya ro’y,
May uchun rang dutub ochdi gesu...
Somiy xalq ashulalariga yaqin she’rlar ham yozgan:
Ko’chadan o’tib borodur Layli jononim mani,
Go’yiyo tandin borodur notavon jonim mani

Shuningdek, Somiy ham boshqa Buxorolik zullisonayin shoirlardek fors-tojik tilida yozgan she’rlariga o’zbekcha so’zlarni qo’shadi. Bu adabiy tilni bilmaslikdan emas, atayin she’rni xalqning jonli til va talaffuziga yaqinlashtirish maqsadida ishlatilgan usuldir. Masalan, shoir o’zbekcha “qiziq” so’zini tojikcha g’azalga radif qilib oladi:

Garchi dar sahnı chaman sumbul-u rayhon qiziq ast,
Chehrai chun guli dildori man az on qiziq ast.

XIX asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan buxorolik shoirlardan yana biri Mullo Abdumajid Muztarib. U Buxoroda tug’ulib. shu yerda tahsil olgan. U bir muddat amir Muzaffar, so’ng esa amir Abdulahad saroylarida xizmat qilgan. A.Muztarib go’zal g’azallar yaratgan:

Jonfidoying menman-u malhami jonsan o’zgaga,
Qochasan mendan yiroq oromravonsan o’zgaga.
Maysalikda hosilim erding meni bug’doyrang,
Men quruq qoldim bugun noni taftonsan o’zgaga.
Parvarish qildim qalamcha singari dil qonidan,
Barg yozar payting yetib, gul-u gulandonsan o’zgaga.
G’o’ralik chog’ing avaylab, qancha zahmat chekdim-u
Pashshalar shirangiz shimdi, xayr –ehsonsan o’zgaga
Misli sarxil mevaga liq to’la la’lisan, vale,
Shuncha fayzing mendan-u zebi do’konsan o’zgaga

Jonin kaftimda tutub, men visoling izlasam,
Ko'z tikarsan bo'lgani yeng-u girebon san o'zgaga.
Men latif she'rimda belda sochlaring yod aylabon,
To'lg'anarman, sochni qilding band pechon san o'zgaga.
Xushkalom she'r muxlisi garchi bisyor Muztarib,
Ammo sen nutq-u bayonda noayonsan o'zgaga.¹

Shoir an'ana zamirida o'ziga xos yangilik yarata oldi. Ushbu g'azal Ogahiyning "Ustina" radifli g'azaliga ergashish asnosida bitilganligi seziladi. Shoir bog'bon qiyofasida "qalamcha" obrazi orqali yangi nihol ko'kartirmoqchi, ya'ni o'zgacha ishq bilan mashuqani bahramand etmoqchi, biroq uning orzusi amalga oshmaydi. Mashuqa, ehtimolki, charxi bemuruvvat oshiqni qanchalik zahmat chekmasin, tashbehlar axtarmasin, betakalluflik bilan siylaydi.

Shu davrda yashagan yana bir ijodkor Abdulloboqiyxo'ja Nazim, ya'ni Bebok taxallusli shoirdir. U XIX asr boshlarida Ahmadxo'ja Mirakxo'ja oilasida tug'ilgan. Madrasa ta'limidan so'ng mudarrislik bilan shug'ullangan. Devon tuzgan. Devonida g'azal, qit'a, qasida, masnaviy kabi janr namunalari uchraydi. Bebokning hayoti ziddiyatlarga to'la bo'lgan. Bu uning g'azallarida ham o'z ifodasini topgan.

Qildi ko'ksim dog', ko'zim qon, dilfigor kulfat meni,
Nega, yo rab, bu qadar ayladi xor kulfat meni.
Bodai hasrat to'kildi to falakning komidan,
Ichgizor taryok misoli zahri mor kulfat meni.
Chekmasin hech kim meningdek bemurodlik jabrini,
Dog'laridan qildi siynam lolazor kufat meni.
Otashi g'ammi sug'orgay dardli dil mazrasini²
Undirar siynamda gulmas, toza xor kulfat meni.
Ayni rohat bir dame gul rangini ko'rmoq esam,
G'unchaning dil dog'iga, qilgay duchor kulfat meni.
G'unchadek dil ta'miri qon dog'idan bo'ldi magar,
Loladek qonga botirgay har bahor kulfat meni.

¹ Buxoriylar bo'stoni. "Yozuvchi". 1998-yil. 134-bet.

² Mazra -ekinzor

Ayriliq o'tida jonim o'rtanur misli sipand¹
Ol qulim, yo rabki, qildi beqaror kulfat meni,
Dard-u dog'-u zahmat-u hasrat chekarman, garchi men,
Faxr etarman qildi deb bee'tibor kulfat meni.
Umr karvoni yukin bog'lar fano mulki tomon,
Qo'ymagay, yuk bog'lasa, dildan g'ubor kulfat meni.
Kimsasizlik dardida kuydi Bebok bus – butun
Bu hayotda ayladi, sham'i mozor kulfat meni.²

Bebok umrining oxirigacha kimsasizlik, g'ariblik va hasratda umr kechirganligi haqida hasbi-hol shaklidagi ushbu g'azal ma'lumot beradi.

XIX – XX asr boshlari Buxoro adabiy muhitining yana bir iste'dodli vakili Shamsiddin Muhammad Shohin hisoblanadi. U 1866-yil Buxoroda tug'ulib, umrini shu yerda o'tkazdi. Shohin oldin maktabda, keyin Buxoro madrasalarida tahsil oldi va shahar mahallalarining birida imomlik qildi. 1887-yildan boshlab, bir muddat amir Abdulahadning parvonachisiga mirzolik xizmatini bajardi va parvonachining qiziga uylandi. Shoirning baxtli hayoti uzoq davom etmadi, to'ydan o'n oy o'tgach xotini vafot etdi. Natijada shoir ruhiyatida, ijodida ezginlik, hijron, dil fig'onlari go'zal g'azallar, ruboiylar, masnaviylar ko'rinishida aks etdi. Uning "Layli va Majnun" masnaviysi xotini xotirasiga bag'ishlab yozilgan. Undan bizgacha she'rlar devoni, "Tuhfai somiy", "Badoye' us-sanoe'" asarlari yetib kelgan. Shohin umrining oxirigacha amir xizmatida bo'lsa ham, qalban istirobli hayot kechirdi va sil kasalligidan vafot etdi.

Uning:

Qonli dil dardiga darmon yetmagay,
So'nggiga bu rohi hijron yetmagay.
Oh-u nolamdan malaklar bo'ldi kar,
Ne uchun yorga bu afg'on yetmagay.

Yoki:

¹ Sipand- isiriq

²Buxoriylar bo'stoni. "Yozuvchi". 1998-yil. 137-138-betlar

To oyoq yurgay, yurarman sen tomon,
To ko'zim ko'rgay, qararman sen tomon.
Qay kuni tolsa oyoq birla ko'zim,

O'ltirarman bergali yo'lingda jon. – kabi ruboiylari shoirning ichki iztiroblaridan darak berganday ko'rinsa-da, aslida u zamonaning nosozligi, ilmlining xorligi, nohaqlik va adolatsizliklardan, xalqning zabun ahvolidan ko'roq qiynaladi:

Bu dahrda buncha ko'p fitna-yu kin bo'lmasa,
Bu davrda hunar-ayb, xor-u zabun bo'lmasa,
Ilmda zarardan o'zga biror yakun bo'lmasa,
Eshak odam sanalsa, odamga kun bo'lmasa,
Bir joy ketayki, boshim uzra gardun bo'lmasa,

Ammo netayki, o'zga joy men uchun bo'lmasa?... - ushbu musaddasda shoirning katta qalb egasi ekanligi namoyon bo'ladi.

Bu davr adabiyotining yana bir yetuk vakili Muhammad Siddiq Hayrat bo'lib, 1876-yilda Buxoroning Aro'son guzarida tavvallud topgan. Otasi shu guzar masjidida muezzin bo'lgan. Hayrat yetti yoshida onasidan, o'n ikki yoshida otasidan yetim qolgan bo'lsa-da, turmush mashaqqatlariga qaramasdan o'qishini davom ettirgan. 1895-yilning oxirlarida Sadriddin Ayniy bilan do'stlashuvi boshlanadi. U iqtisodiy hayotini yaxshilash maqsadida shu yili Ashurbek degan qorako'l teri bilan savdo qiladigan dallolning mirzosi bo'lib, ishga kiradi. Hayrat 1902-yili 26 yoshida Buxoroda sil kasalligidan vafot etadi. Hayratdan bizgacha 1 ta devon yetib kelgan. Shoirning devonida g'azal, qit'a, qasida, muxammas, musaddas, masnaviy va ruboiy kabi janrlar uchraydi. Hayrat ikki tilda, fors-tojik va turkiy tilda ijod qilgan.

Masalan:

Ey munisi dil, kecha sen kima mehmon bo'luvding ?
Jon sensiz o'rtandi sen kima jonon bo'luvding ?
Men ishqing mayidan mast, sen o'zgaga ulfat,
Dardmanding men-u sen kima darmon bo'luvding ?
Ag'yor suhbatiga g'arqsan-u bir bor o'ylamaysan,
Aslida azaldan kima armon bo'luvding ?
Olding qarorimni-yu kimga berding orom,

O'ldim firoqing ichra, ayt, kima jon bo'luvding ?
Ko'z yoshim aro suzdi aylokni qayig'i,
Ey ruhi ravon, kima lo''bati xandon bo'luvding ?
Bir bor dilimdan olmading jabr tikonin,
Gul oraz ila kima sarvi guliston bo'luvding ?
Xanjar qo'lida, bir mast kelar qatlingni istab,
Hayrat, qaraki kima zahmi paykon bo'luvding ?¹

Bu davr o'zbek va tojik adabiyoting mashhur shoir va yozuvchilaridan yana biri Sadriddin Ayniydir. Sadriddin Ayniy ijodi an'anaviy adabiyotning oxiri va yangi davr adabiyoting boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Sadriddin Ayniy 1878-yili Buxoro viloyatning G'ijduvon tumanidagi Sektare qishlog'ida tug'ilgan. Dastlab qishloq maktabida, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Shoirdan bizgacha 15 jildidan iborat asarlar me'ros qolgan. U umrining oxirini Tojikistonda o'tkazdi, qabri Dushanbe shahrida. Sadriddin Ayniy serqirra ijodkor sifatida, ustoz-u olim sifatida ham nom qozondi. Shoir ijodidan ayrim namunalar buning isbotidir. Undan bizgacha "Qullar", "Odina", "Qori ishkamba" kabi nasriy asarlar va go'zal g'azallar yetib kelgan. Misol uchun:

Rozi dil aytar edim, bir mahramim bo'lsa agar,
Shikvalar g'amdan qilardim hamdamim bo'lsa agar.
Dilga zahm tushmas edi hijron tunida, vo alam,
Gar pari-ro' vaslidan malhamim bo'lsa agar.
Bu jahon zahmatlari jonimga jabr solmas edi,
Labidan bo'sa tutar Isodamim bo'lsa agar
Ayrilib qolgaymi erdim sayri gulga bormayin,
Kaftlarimda o'zgalarday dirhamim bo'lsa agar.
Iztirobga buncha botdim o'z xayolimdan, ajab,
Zavq topardim o'zni tark aylar damim bo'lsa agar.
Chun tarozu qay kuni sargashtalik bo'ldi nasib?
Ayniy, fikrimda na ko'p-u kamim bo'lsa agar.

¹ Buxoriylar bo'stoni. T. 1998-yil. 139-140-betlar.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, XIX asr va XX asr boshlari Buxoro mamlakatida o'zaro tala-to'plar bo'lgan bo'lsa-da, shoir-u fozillar yurti bo'lmish Buxoroyi Sharif jahon ilm-fani va madaniyatiga yuzlab allomalarni yetishtirib berganligi sir emas. Bu allomalarning ko'pchiligi haqida to'liq yoki qisman ma'lumotga egamiz. Lekin yana bir qancha shoir-u fozillar borki, ular to'g'risida hatto tasavvurga ham ega emasmiz.

Dissertatsiyaning birinchi bobida Buxoro adabiy hayoti tojik-o'zbek adabiy aloqalaring rivojlanishi bilan ham xarakterlanadi. XI asrda o'z ibtidosini boshlab, XVIII-XIX asrlarda keng quloch yoygan zullisonayinlik an'anasi XX asr boshlarida ham Buxoroda o'z mavqeyini saqlab qolgan edi. Xoja Ismat Buxoriy, Mirzo Sodiq Munshiy, Vozeh, Savdo, Mirzo Azimi Somiy Bo'stoniy, Hayrat, Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Tamkin Buxoriy kabi ko'plab forsiyzabon shoirlar turkiy tildi ham go'zal misralar yaratib, har ikkala adabiyot ravnaqiga sezilarli hissa qo'shganlari haqida ma'lumot bayon etiladi.

II BOB. ABDURAHMON TAMKIN BUXORIYNING HAYOTI VA ADABIY MEROSI

2.1. Abdurahmon Tamkin ijodini o'rganishdagi asosiy manbalar

Har bir xalq o'z tarixini avaylab keladi. Bu tarix ne'matlari bo'lmish, madaniy va adabiy meroslaridan kelajak sari ildam yo'l bosish uchun kuch quvvat oladi. Tarix –bu ko'hna dunyo demakdir. Davrlar, xalqlar va o'sha zamonni jonlantirish, tilga kiritish esa tarixning burchidir. Ajdodlarimiz tabbarruk xotirasini abadiylashtirish esa bugungi va kelgusi avlodlarning muqaddas vazifasidir. Zero, tarixidan bexabar xalq mazlum, tarixi yolg'on yozilgan xalq mahkum; tarixini asragan va bilgan xalq qudratli va tenglar ichra teng xalqdir, - deb aytgan yurtboshimiz nechog'li haq. (Buxoro safaridan)

Ilmiy ishda ana shunday tarix zarvaraqlarida o'z o'quvchisini kutib yotgan ijodkorlardan biri haqida qarashlar bayon etiladi.

Buxoro qadimdan shoir va ulamolar to'plangan eng yirik shaharlardan biridir. Unga "Qubbat ul islom", „Buxoroyi tarif“ unvonlari berilgan. Buxoroda "Malik ul- kalom" Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy yashab, ijod qildi. Narshaxiyning „Buxoro tarixi“ asarida go'zal she'riy parchalar mavjud. Bal'amiy Tabariyning "Ta'rix..." asarini Buxoroda fors tilida qaytadan yozgan. Ibn Sino buyuk qomusiy olim bo'lish bilan birga arab va fors-tojik tillarida she'riy asarlar yozgan. Buxorolik Daqiqiy Abu Mansur Muhammad Firdavsiyning ustози bo'lib, "Shohnoma" dostonini dastlab u yoza boshlagan. Abu Mansur Saolibiy "Yatimat ud-dahr" tazkirasida 10-asrda poytaxt Buxoroda yashab arab tilida ijod qilgan 25 shoir haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Uning yozishicha, "Buxoro Somoniylar hukmronligi davrida shonshuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan joy edi". Avfiy Buxoriy adib, tarjimon va tazkiranavis olim edi. U Turon adabiyotida tazkiranavislik janriga asos solgan.

Sharofiddin Buxoriy (13-14-asrlar) mashhur “Chor kitob”ni tuzgan shofirkonlik ulug’ mutasavvuf shoirdir. Temuriylar sulolasi davrida Buxoroda Nosir Buxoriy, Ismat Buxoriy (1365-1426), Burundiq Buxoriy, Tohir Buxoriy, Xayoliy Buxoriy, Sayfiy Buxoriy (15-asr) kabi shoirlar yashab, devon tuzishgan. Ismat Buxoriy o‘zbek, fors va arab tillarida she’r yozish an’anasini Buxoroda boshlab berdi. “Ibrohim Adham” dostonini o‘zbekchada bitdi. U temuriy shahzoda Xalil Sultonning murabbiysi edi. Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonga bag‘ishlangan o‘zbekcha „Shayboniynoma“ dostonini yozdi. Shayboniylar sulolasining vakillari bo‘lgan Buxoro xonlari Muhammad Shayboniyxon „Shayboniy“, Ubaydullaxon ibn Mahmud Sulton „Ubaydiy“, Abdullaxon II „Xon“ taxalluslari bilan she’r va dostonlar yozishdi, devon tuzishdi. Xususan, Ubaydullaxonning ijodi sermahsul bo‘lib, u o‘zbek, fors, arab tillarida lirik g‘azallar, masnaviy yo‘lida so‘fiyona mazmun bilan sug‘orilgan risolalar yozgan. Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida 16-asrda faqat Buxoroning o‘zida yashab, ijod qilgan 110 nafar shoir va tarixchilarning nomlarini keltiradi. Ular orasida Mavlono Abdurahmon Mushfiqiy, Mavlono Majlisiy, Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy („Mehmonnomayi Buxoro“ tarixiy asari va o‘zbekcha she’rlari bor), Mavlono Naxliy (1549-1636; u Hofiz Tanish Buxoriy bo‘lib, „Abdullanoma“ — „Sharafnomai shohiy“ tarixiy asarining muallifidir), Mavlono Xoja Muhammad Sadr (Afzaliy), Mavlono Foni, Mavlono Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy (Husomiy Qorako‘liy; 1442-1505), Sayd Podshohxo‘ja bin Abdulvahhobxo‘ja (Xoja), Mavlono Kasiriy, Mavlono Afsariy, Sayfiy Aruziy, Saqqo Buxoriy kabi mashhur shoirlar bor. Turdi Farog‘iy, Buxoriy Naxliy, Shavkat Buxoriy (17-asr), Mulham Buxoriy, Voras, Saidkamol Fitrat (17-18-asrlar), Imlo Buxoriy, Abdullatif Kirom Buxoriy (18-asr) ashtarxoniylar davridagi eng taniqli shoirlar edi. Buxoro viloyati da mashhur shoir Sayido Nasafiy (17-asr) yashab ijod qildi. Yirik faylasuf olim Muhammad Sharif Buxoriy (vafoti 1697) „Favoidi Hoqoniyya“ (1643), Muhammad Yusuf Munshiy „Tarixi Muqimxoniy“, Mir Muhammad Amir Buxoriy „Ubaydullanoma“,

Muhammad Amin ibn Muhammad Zamon Buxoriy „Muhit attavorix“ tarixiy asarlarini yozishdi. Mir Muhammad Amin Buxoriy Subxonqulixon (hukmronligi 1681 — 1702) va Ubaydullaxon II ibn Subxonqulixon (hukmronligi 1702-1711) saroyida bosh munshiylik lavozimida xizmat qildi. Buxoro xoni Subxonqulixon „Nishoniy“ taxallusi bilan she’rlar yezdi. Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685-1769) „Tuhfat ulXoniy“ („Xon tuhfası“) kitobining muallifidir. Shoir, tarixchi va munajjim Abdurahmon Tole’ (18-asr) „Tarixi Abulfayzxon“ asarini yaratdi. Muhammad Sharif Buxoro amirligi tarixiga oid „Toj uttavorix“ (1800) asarini yozdi. Buxoroda mang’itlar sulolasi davrida Mirzo Sodiq Munshiy, Mirzo Ato, Muhammad Nishotiy, Mujrim Obid, So’fixo’ja So’fiy, Bebok, Vozeh, Savdo (1824-73), Muztarib, Iso Maxdum Buxoriy (1827-88), Muhammad Siddiq Hayrat (1876-1902), Abdurahmon Tamkin (1851-1915), Mirzo Hayit Sahbo, Ahmad Donish, Ya’qub ibn Doniyol Buxoriy (1771-1831), Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif (18-19-asrlar), Muhammad Olim Buxoriy (19-asr), Mirzo Abdulazim Somiy Bo’stoniy kabi shoir va tarixchilar ijod qilishgan. Sadr Ziyo — Sharifjon Maxdum (1867-1932), Mirzo Sirojiddin Hakim (1877-1912), Mulla Ikrom (Ikromcha domla) ham ularning munosib izdoshlari edi. Buxorolik Afzali Pirmastiy (vafoti 1915) „Afzal uttazkor“ (1904) tazkirasida 19-asr oxiri — 20-asr boshida Buxoroda yashab o’tgan 135 ijodkor haqida ma’lumot beradi. Jadid adabiyotining tamal toshini qo’yanlar safida buxorolik Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy bor. Abdulvohid Burhonov „Munzim“ taxallusi bilan she’rlar yozgan. 20-asrda Buxoroda o’ziga xos adabiy muhit shakllandi. Sulton Jo’ra (1910- 43), Muhammadjon Rahimiy (1901-67), Jalol Ikromiy, Toshpo’lat Hamid (1927-84), Sa’dulla Karomatov, Nemat Aminov, Jamol Kamol, Omon Muxtor, Oydin Hojiyeva, Toshpo’lat Ahmad kabi shoir va adiblar sho’rolar rejimi davrida ham badiiy jihatdan pishiq asarlar yaratshdi. Bugungi o’zbek adabiyotining taraqqiyotida Gulchehra Jo’rayeva, Usmon Qo’chqor, Sadriddin Salimov, Tilak Jo’ra, Norto’xta Qilich, Safar Barnoyev, Yusuf Jumayev, Halima Ahmedova, Ahad Hasan, Vafo Fayzullo, Sulaymon

Rahmon, Chorsha'm Ro'zi kabi shoir va yozuvchilarning o'ziga xos hissi bor. Mustaqillik davrida buxorolik ijodkorlar o'z salaflarining an'alariga sodiq qolgan holda o'zbek, tojik, rus tillarida samarali ijod qilishmoqda.

Buxoroning asl farzandlaridan biri Abdurahmon Tamkin Buxoriy XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan sermahsul ijod namoyondasi, zabardast shoir va zamonasining peshqadam olimlaridan edi. Bu haqda zamonasining ma'rifatparvar olimi Ahmad Donish Tamkini ulug' shoirlar qatorida sanab, uning ijodiga yuqori baho bergan: "Bilchumla dar on zamone ki mo budem, bozori fazlu hunar naroiyu kasod bud. Shohin, Muztarib va Tamkin az shuaro muqaddami on nazon budand"¹.

Tamkin ijodini o'rganish uchun quyidagi 3 manbani nazardan o'tkazish lozim:

- 1)XIX asrda yaratilgan tazkiralar;
- 2)Tamkinning o'z asarlari;
- 3)shogirdlari yozib qoldirgan xotiralar.

Birinchi manbaga diqqat qaratadigan bo'lsak:

-XIX asrda yashab o'tgan Afzal Maxdumi Pirmastiy va Xoji Ne'matullo Muxtaram kabi tazkiranavislarning asarlarida buxorolik zullisonayn shoir Tamkin haqida mavhum ma'lumotlar, aniqrog'i, haqiqatni buzib ko'rsatuvchi noto'g'ri ma'lumotlar uchraydi, - deb yozadi -tojik olimi Asqar Jon Fido.²

Darhaqiqat, ushbu tazkiralar Tamkin haqida aniq ma'lumot bera olmaydi. Chunki o'zbek adabiyotida Tamkin ijodi hali o'rganilmagan, imkon qadar shu masalaga yechim berishga harakat qilamiz.

Endi, ikkinchi manba Tamkin asarlariga murojaat etsak, ularda shoir o'zi haqida ayrim ishoralar qilgan. Ana shu ishoralarni diqqat markazimizda saqlab, shoirning shogirdlari xotirasini varaqlasak o'xshashlik va yaqinlikni uchratamiz. Ushbu

¹ A.D. Daftari musavvada. Dastnavisi ganjinai dastnavishoi sharqii AF RSS O'z-n, tahti raqami 2779, var. 47).

² A.J.Fido. Dushabe. 1974-yil. "A.Tamkin risolasi". 3-bet

muvofiglik tufayli shoirning hayoti va ijodi haqida aniqlikka erishish mumkin.

A.Tamkinning hayoti va ijodi haqida aytilgan har xil fikrlarga chek qo'yishda shoirning shogirdi Ja'farovning ¹ xizmati katta bo'ldi.

Ja'farovning yozilmalarida; "Dar sanai 1905 melodi (barobari 1322 hijriy) baroi tahsili ulum ozimi Buxoro gardida ...dar hovli Hoji Maxdum sokin gardidam. Alassaboh bo Hoji Maxdum ba hovlii domullo Abdurahmoni Tamkin raftem. Domullo bisyor odami xoksor va halim bud. Sinni sharifi eshon karib boi panjohu se rasida bud...²",-degan fikrlar uchraydi. Bu ma'lumotdan shu narsa aniq bo'ladiki, agar shoir 1905-yil 53 yoshda bo'lsa, demak u 1851-1852-yillar atrofida Buxoro shahridagi Bo'yrabofi dahasida tavallud topgan. Otasi Mulla Abduxoliq degan kishi bo'lgan. Tamkinning umri Buxoroda o'tgan. U Buxoro madrasalarida tahsil olgan va ona-shahrida yashab, ilm o'rganganidan g'oyatda mamnun bo'lgan hamda tinch -osuda hayotini quyidagicha ifodalagan:

Bihisht joi tu, Tamkin chi joi reb dar o'

Ki monda bog'chaye yodgor az padar ast.

Tarjimasi: Jannat joying sening Tamkin, eshiging jannat eshigi,

Shu joydagi bog' otangdan yodgordir.

2.2. Abdurahmon Tamkinning hayot yo'li va faoliyati haqidagi izlanishlar

Abdurahmon Tamkin yashagan Bo'yrabofon mahallasi Buxoro shahridagi eng katta guzarlardan³ biri hisoblangan .

Bu mahalla 1846- yil tashkil topgan. Lekin unda guzar nomi Bo'riyobofon deyilib, u yerda Hoji Qurbon nomida machit ham

¹Ja'farov Said binni Ja'far-ul-Hanafiy Texnobodiy.Rudakiy nomli til va adabiyot instituti xodimi. Umrining oxirini Dushanbeda o'tkazgan

²Ja'farov: Melodiy 1905-yil (hijriy 1322-yil) ilm olish uchun Buxoroga borganimda, Hoji Maxdumning hovlisiga kirdim. Hoji Maxdum bilan domla A.Tamkinning uyiga bordik. Domla juda kamtar va muloyim fe'lli kishi edi. U 53 yoshga kirgan edi.

³ Guzar -fors-tojikcha so'z bo'lib, "mahalla" degani.

bo'lgan. Bo'yrabofon mahallasi Besh kappa deb ham yuritilgan. Keyinchalik bu yerdagi xalq bo'yra to'qish bilan shug'ullangani uchun guzar ham shu nomad bo'lib ketgan.

Bo'yrabofon mahallasi katta bo'lib, aholisi ham ko'p bo'lgan. Ular turkcha so'zlashgan. Mahalla aholisi ikkiga bo'lingan: mahallaning Janubiy tomonida xorazmlik o'zbeklar, Shimoliy tomonida esa chorjo'ylik turkmanlar yashagan. Ular Shoh Murod buyrug'I bilan ko'chib kelishgan. Shoh Murod Xorazm xoni bilan urishib g'alaba qozongan va xorazmliklarning bir qismini shaxar markaziga olib kelgan, lekin joy bo'lmagani, aholi zichligi uchun ularga ana shu yerdan joy bergan. Bir qism turkmanlar esa joy yo'qligidan Qorako'l tumaniga ketishgan. Xorazmlik va turkman Xidir –Ellinlar avval birgalikda yashashgan. Lekin amir Olimxon davrida har bir elat o'zining oqsoqolini tanlab, ikkiga bo'linishgan. Ikki guruh ham bo'yraboflik kasbi bilan shug'ullangan. Guzarda ularning o'z bozorchalari ham bo'lgan. Shuninhdek, mahalladagi anchagina aholi sobungarlik ham qilishgan.

1927-yilgi hisobotlarga ko'ra guzarda 107 xo'jalik bo'lib, unda 420 kishi istiqomat qilga. 1929-yili esa u qo'shni Chorbaqqoli darvozai Samarqand, Olim xo'ja guzarlari bilan birlashib Samarqand guzari deb nomlana boshlangan.

Hozir bu guzar yana avvalgidek o'zining eski nomi – Bo'yrabofon nomini oldi¹. Abdurahmon Tamkin Buxoriy ana shu mahallada butun umr yashab, ijod etib, xalqimizga go'zal asarlar va ibratli hayot yo'lini meros qilib qoldirdi.

Tamkin Buxorodagi “Dorushshifo” madrasasida dars bergan. Shoir asarlaridan ma'lum bo'ladiki, mudarris bo'lganiga qadar imom bo'lgan va davlat ishlarida ishlagan.

Bu haqda shoir o'zining “Mo'liston” asarining muqaddima qismida ishora qilib, aytadi: “Dar tarixi gurrai sha'boni muazzam sanai 1315 bud, ki hazrati Zillil olamin (Amir Abdulahad) –ro dar oinai xotir chande uvari jam'iyati ahli fazlu kamol jilvapazir gardid, yake az on jumla bandai hejmadon hamagi sahv nuqson ... muddate se moh kamyobii in davlati bekaroni farovon ba

¹ Viloyat davlat arxivi, 37-fond, opis 1, delo 92,1-8 betlar; delo 254, 4, 28-30 betlar.

mehrubonii maliki mannon bo hama vusuli ne'mat va ehsoni kasir ba qatori sar karda va amoratpanohon muvoajib va at'ima az noni ehsoni kasir bo shahdu shirini nomzad va maxsus megardid"¹.

"Mo'liston"¹⁷ baytdan iborat, u Buxoro amiri Abdulahadxonga madhiya tarzida bitilgan bo'lib, qit'a janrida yozilgan.

Yoki, Tamkinning yana bir madhiyasi ham Abdulahadxonga bag'ishlangan. U xonni –Chunin shohi diloso-yu dilorom²- deb ko'klarga ko'taradi. Bu asar 71 baytdan iborat bo'lib, "Ganji shoygon" ("Shohlar duri") deb nomlangan. U masnaviyda yozilgan, tarkibida uchta ruboiy ham uchraydi.

Tamkin 1898-1901 Amir Abdulahad saroyida eshikbonlik qiladi. Mana shu yillarda shoir barcha zulm va jaholatning sababchilari amirning tevaragidagi amir-u umarolar deb biladi. U amir Abdulahadni ularga ishonmaslikka, diyonatli bo'lishga chaqiradi.

Ashkam az mijgon ba ro'yam obro'yam rext –rext,
Obro' barbod shud, durri nako'yam rext-rext³.
(Ko'zlarimdan yoshlarim shashqator to'kildi,
Obro'yim yakson bo'ldi, orzularim yerga to'kildi).

Amir Abdulahadning ham shoirga e'tibori kuchli edi. Biroq, g'alamis odamlarning ig'vosi tufayli shoir asta-sekin amirning nazaridan qoladi. Shoir qanchalik marhamat kutmasin, amir u kutgan narsani ravo ko'rmaydi. Oxir oqibat Tamkindagi ishonch va iltijo o'rnini cheksiz nafrat egallab, saroydan uzoqlashadi. Uning saroy ahlidan shunchalik ko'ngli qoladiki, hatto ular bilan duch kelib qolishni istamaydi. Bu istakni hatto "Mo'liston" asarida keltirilgan hikoyat orqali ham yaqqol ifodalagan.

Tamkinning bu nafrati haqqoniy va to'g'ri bo'lgan. "Navodiri Ziyoiya" asarining muallifi Sharifjon Maxdum ham Buxoroning nodon va belayoqat qozikaloni mulla Burhoniddin haqidagi Tamkin fikrlarini tasdiqlab buning to'g'riligini aytadi: "Mullo

¹ Tamkin. "Mo'liston". Dastxati tahti raqami 337. II III. O'z-n. varaq 8-9. (8-9-betlar)

² Tamkin. Devon. Qo'lyozma nomeri. 111. 39-bet.

³ Tamkin. Devon. Qolyozma nomeri 111. Var.39

Burhoniddin valadi arshad Mullo Badriddin qozikaloni Buxoroi Sharif dar zamoni amir Abdulahad va amir Olimxon ba libosi qozikalon mulabbas ba masnadi shariat az judoyei mulabbas bud ... ba zammi qozikaloni bo in xari ba nodoni sharm nokarda, dars ham meguft va az hama g'aribtar ba duxtari yake az generalhoi rus oshiq shuda bo mahkama kashida shud..., ki in bar hamoqat va sifohatashon daleli mujassam ast".¹

Mana shu fikrlardan aniq bo'ladiki, bir guruh riyokorlar Abdulahadxon atrofini zich o'rab olgan, ular ta'ma va ochko'zlik bilan xalqni aldab keladilar. Tamkin bu fitna-yu fasod va badkirdorlik qobig'iga o'ralib qolgan kimsalardan uzoqroq ketgani uchun Ollohga shukrona o'qiydi:

Sinasofam zohiru botin maro yakson buvad
Pust to mag' zam ba rangi naxlai rayhon buvad
Shukr lillah shud xamiram xoli az tuxmi fasod
In ham az lutfi amimi ezidi mannon buvad ²

Tamkinning bu gaplari uchun qozikalon mullo Burhoniddin uni mudarrislikdan ham bekor qiladi. Bu voqeadan keyin Tamkin majburan uzlatni ixtiyor qildi. Shoir "Jaroid" nomli asarining muqaddimasida hayotining bu davri (1914-yillar) haqida gapirib o'tadi.

2.3. Abdurahmon Tamkinning adabiy merosi va ilmiy asarlari

Tamkinning adabiy merosi boy va sermahsuldir. U barcha janrlarda ijod qilgan. Chunonchi, qasida, g'azal, muxammas, qit'a, fard, chiston, muammo va hajv kabi janrlarda barakali ijod qilgan. Uning aksariyat asarlari tojik tilida yozilgan, biroq uning o'zbek va arab tillarida yozilgan ayrim she'rlari ham borki, bular Tamkin har uchala tilni ham mukammal bilganligidan dalolat beradi.

Bu tojik olimi Aqar Jon Fidoning ilmiy izlanishlarida ham matn asosidagi ma'lumotlar sifatida berilgan: "Tamkin Abdurrahmon (1851, dehai Buryobofi Bukhoro—4915, Bukhoro),

¹ Sh.M. Navodiri Ziyoiya. Dastxati raqami 183, Gajinai dastxathoi sharqii AFRSS Tojikiston, var 206

² Tamkin. Ruboiyot. Var. 32.

shoiri tojik. Pas az tahsil mudarrisi madrasai «Dorushshifo»-i Bukhoro tain shud. Muddate dar khizmati darbor bud, vale muhiti on jo ba tabiati shoir muvofiq naomad va u tarki khidmat kard. Tamkin az khud merosi ziyode boqi guzoshtaast:

1. Devoni qasoid va gazaliyot, ki az 184 bayt qasoid va 3204 bayt gazalhoi gunogunmavzu faroham omadaast.

2. «Ganji shoygon» — masnaviest shomili 18 fasl va 14 bob, ki dar mazammati bukhlu hasad va kibru gurur gufta shudaast.

3. Majmui «Ruboiyot», ki 488 ruboi, 1468 mufradot, 7 chiston, 6 muammo. 15 bayti parokandaro dar bar megirad. Dar ruboiyoti shoir janbai tanqidi beshtar ba nazar merasad.

4. «Jaroid», ki az 305 qitai pandomez iborat ast.

5. «Guliston» — asari pandu akhloqi dar payravii «Guliston»-i Sadi, 4 qitai manzum va 76 hikoyat dorad. Khulosai har yak hikoya bo qitae jambast tardidaast.

6. «Matole-ul-fokhira va matolib-uz-zohira» — asarest notamom, ki az 44 matla, 1 tajalli, 1 shashaa va 4 numoya iborat buda, goho bo qitaho zinat yoftaast.

In kitob, ki manbai muhimmi adabi va tarikhist, kushishe baroi navishtani tarikhi mufassali Bukhoro budaast. Ilova bar in asarho ashori parokandai shoir dar tazkiravu bayozhoi asri 19— ibtidoi asri 20 darj yoftaand. Hamchunin, dar «Tazkirat-ush-shuaro»-i Muhtaram az «Junaydi laoli» nom asari Tamkin yodovari meshavad, ki hanuz dastras nagardidaast.”¹

A.Tamkindan juda boy adabiy meros qolgan. Bular: “Devoni qasoid-u g’azaliyot”, “Ganji shoygon”, “Ruboiyot”, “Jaroid”, “Mo’liston”, “Matole’ ul-foxira va matolib uz-zahira”. Yana shoirning ayrim she’rlari o’sha davrda yaratilgan tazkira va bayozlardan o’rin olgan.

Shuningdek, “Tazkirat ush-shuaro” asarining muallifi Hoji Ne’matulloh Muhtaramning xabar berishicha Tamkinning “Junaydi laoli” degan asari ham bo’lgan. Lekin bu kitob va u haqdagi aniq ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

¹ A. Jon Fido. Matnro dar xatti asli xondan.

Tamkin devoni 6764 misra bo'lib, shundan 356 misrasi qasida va 6408 misrasi g'azaldir. "Ruboiyot" asarida esa 488 ruboiy, 1468 mufradod, 7 chiston va 6 muammo bor.

Shoir g'azallarini mazmun jihatidan 3 qismga bo'lish mumkin:

- 1) an'anaviy g'azallar;
- 2) amaldorlarni tanqid qilgan, hasad, kibr-g'urur, zararli xislatlar haqidagi g'azallar;
- 3) pand-u nasihat mavzusidagi g'azallar.

Shoirning "Jaroid" asari 1168 misra bo'lib, 305 qit'adan iborat. Bu asarning mavzusi pand-u nasihatdan iboratdir. Shoirning diqqat markazida muhim hayotiy masalalar turadi.

"Mo'liston" Sa'diyning "Guliston" iga payrov tarzida nazm-u nasrda bo'lib, maxsus boblarga bo'linmagan. Bu asar 4 qit'a va 76 hikoyatdan iborat. Qit'a va hikoyatlar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, bir-birini to'ldirib boradi.

"Ma'ole'-ul-foxira va matolib -uz zohira" asari shoir umrining oxirgi yillarida yozilgan. Ushbu asar: ham adabiy, ham tarixiy manba hisoblanadi. Tamkin biror bir shoir yoki olim haqida gapirar ekan u yashagan sharoit va geografik hayot haqida keng ma'lumot beradi. Bu asarda u Buxoro tarixi haqida, me'morlik san'ati haqida, madaniy yodgorliklari haqida keng to'xtaydi. Chunonchi, masjid, xonaqoh, ark, madrasalar va boshqa imoratlar haqida batafsil tasvir beradi.

Shuningdek, unda sayyoralarning harakati va ularning odamlarga ta'siri tabiatning o'zgarishi, daryolardagi iqlim, nabotot olamining xususiyatlari haqidagi sharhlarni ham uchratish mumkin.

Xoji Ne'matulloh Muhtaram tazkirasida Tamkin vafotini hijriy 1334 (melodiy 1915) deb qayd qilgan. Professor A.A.Semyonov esa Tamkin vafotini 1917-1918-yillar deb ko'rsatadi. Tamkin vafoti to'g'risidagi bu har xillikka ham shoirning shogirdi Ja'farov aniqlik kiritadi:

"Dar soli 1915 dar Buxoro bo domullo Tamkin az nav muloqot kardam. Vay az davrai piriash zaboni shikoyat kushoda

guft: “Piri ham monandi davrai tufuliyat ast. Aknun qarib ba 63 daromadam, sihat va salomatiam az dast rafta, kasali tobu tavonamro rabuda, imkoni tavonash roh raftanam namondaast”... Pohoi domullo minavisad, Ja’farov, varam karda bud, hatto agar ba devor takya namekard, ba no xestan nametavonist”¹. Ana shu fikrlar ko’rsatadiki, Ne’matulloh Muhtaramning xulosasi haqiqatga yaqindir. Zero, shoirning shogirdi Ja’farovning ko’rsatmasi ham shuni tasdiqlaydi. Demak, Tamkin 1915-yil dunyodan ko’z yumgan.

Ikkinchi bob bo’yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, vaqt bizdan hayoti va ijodi Xulosa qilib aytganda, vaqt bizdan hayoti va ijodi o’rganilmagan fors-tojik tilida qalam tebratgan, ma’lum va mashhur Buxoriylarga oid manbalarni qaytadan ko’rib chiqishni hamda ularni bugungi kitobxonga tarjima orqali yetkazishni taqozo etmoqda. Buxoriylar asarlarini o’zbekchaga ag’darish davr talabi. Tarjima nafaqat bir xalqni ikkinchisiga tanishtirish, balki bir xalqning ulug’lari, donishmandlari, olim-u fozillari yaratgan qadimiy merosni o’ziga qaytarish san’ati hamdir.

Demak, Tamkin Buxoriy ijodini xalqimizga yetkazish, bu ma’naviy buloqdan ularni bahramand etish, ajdodlarga ehtirom va avlodlar oldidagi burch sanaladi. Ya’ni:

Adabiyot sohira tuyg’ular makoni,
Unda millat yashar, unda xalq yashar...

¹ Ja’farov. Shaxsiy xotiralari, o’sha kitob

III. ABDURAHMON TAMKIN ASARLARIDAGI POETIK TIL, G'OYA, DAVR NAFASI VA SHOIR IJODINING RANG – BARANGLIGI

3.1. Tamkin ijodida g'azal janri va uning poetik tili

Har qanday shoir asarlari tahliliga diqqat qaratadigan bo'lsak, mumtoz adabiyotning asosiy ijod shakli she'riyat ekanligini va uni ilmiy o'rganadigan soha mumtoz adabiyotshunoslik ekanligini, klassik adabiyot namunalari esa shu nuqtayi nazardan o'rganilishi kerakligini diqqat markazimizda saqlamog'imiz lozim.

Demak, mumtoz adabiyotshunoslik uch qismdan iborat:

- 1) aruz ilmi;
- 2) qofiya ilmi;
- 3) badiiyat ilmi.

Bulardan birinchisi aruz she'rning vazni, o'lchovi haqidagi ilm bo'lsa; ikkinchisi qofiya ilmi haqida bahs yuritadi; uchunchisida esa chiroyli so'zlash, nodir, go'zal, ajoyib ifoda ilmi haqidagi qarashlar ilgari suriladi.

Badiiyat ilmi "ilmi bade" deb ham yuritiladi va shoirning lafziy va ma'naviy hamda lafziy-ma'naviy san'atlarni qay darajada qo'llay olish mahoratini tahlil qiladi.

A.Tamkin Buxoriyning o'z davrida, shoir sifatida tanilishida u yaratgan go'zal g'azallar ham asos bo'ldi desak, xato bo'lmas. Chunki, shoirning shoirligi uning g'azalchilikdagi mahorati bilan belgilanishi va shundagina devon tuza olishga haqli ekanligi aruz tizimining an'anaviy talablaridan ekanligining o'ziyoq, Tamkin devonini yuksak saviyadagi g'azallar bezaganligidan darak beradi.

Tamkin ijodida g'azal janrining go'zal namunalari uchraydi. G'azallarida asoson an'anaviy unsurlar yetakchilik qiladi. Tamkin g'azallarining tili soddaligi, o'ziga xos tashbehlariga boyligi, poetik vostilardan mohirona foydalanganligi, lisoniy unsurlarni o'z o'rnida qo'llaganligi va jonli xalq tiliga yaqinligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda u tasavvufiy adabiyot namunalari ham o'ziga

xos holda tasvirlab bera olgan. Uning g'azallarida oshiqona va orifona, oshiqona va rindona ruh betakror holda biriktirilgan. Masalan, quyidagi g'azalga diqqat qaratadigan bo'lsak:

Anqitar xush bo'yini dil yayratar gul bir tomon,
Gul ufori bir tomon, nolai bulbul bir tomon,
Bu chaman nargiz ko'z-u savsan zabonini ochib,
Zulfiga oro beribdir taqqancha sunbul bir tomon.
Bir tomon sog'ar cho'zibdur lola mast gullar sari,
Mayparastlar bir tomon, har turfa g'ul-g'ul bir tomon.
Gullibosim, tur ketaylik gul-u gulshan bag'riga
Bir tomon qolsin g'ururing, ham tag'oful bir tomon,
Bir tomon gulro' jamoling, bir tomon gulning hidi,
Ham sharob tug'yoni bir yon, shisha-yu qul-qul bir tomon.
Bir tomon qushlar fig'oni, bir tomon nuql-u kabob
Jom-u ko'za kulgusi-yu zavqli ko'ngil bir tomon.
Yor diliga yo'lni topmoq, Tamkino, oson emas,
Bir tomon ishva-yu noz-u ham tajohul¹ bir tomon

Tamkin lirik shoir sifatida ham gavdalanadi. U o'z g'azallarida nozik xayol, sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Betakror o'xshatishlar, go'zal, esda qoladigan tashbehlar, kutilmagan mubolag'ali tasvirlar bilan ma'shuqaga iltijo qiladi. Shoirning ishqiy mavzudagi she'rlarida, asosan, real yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan ishqini ko'rish mumkin. Biroq shoir she'rlarida yana botiniy va zohiriy ishq uyg'unligi qorishiq holatlar ham borki, shoir jism va ruh, shakl va mazmun birligini istagan.

Shoirning: Anqitar xush bo'yini dil yayratar gul bir tomon,
Gul ufori bir tomon, nola-i bulbul bir tomon –matla'li g'azali
15 hijoli bo'lib, aruzning ramali musammani mahzuf yoki maqsur bahrida yozilgan.

G'azalning ikkinchi baytining ikkinchi misrasi ramali musammani solimda yozilgan. Ya'ni 16 hijodan iborat bo'lib, ruknlardagi hijolar soni teng, ya'ni solim. Bu g'azalning uch vaznda yozilganidan dalolat beradi.

¹ Tajohul – o'zni bilmaslikka olish

Bu g'azal oshiqona g'azal hisoblanib, unda rindona ruh ham sezilib turadi.

G'azal eng ko'p uchraydigan yetti baytli g'azallar qatoriga kiradi: 7 bayt, 14 misradan iborat.

Qofiya tizimi quyidagilardan iborat: gul, bulbul, sunbul, g'ul-g'ul, tag'oful, qul-qul, ko'ngul, tajohul. Shoir g'azal qofiyasida so'zlar tuzulishidagi rang-baranglikka erishgan va bu g'azalning va jozibadorligini oshirishga xizmat qilgan. Masalan: gul, sunbul, ko'ngul, tag'oful, tajohul- sodda so'z hisoblansa; g'ul-g'ul, qul-qul tuzilishiga ko'ra takror so'z hisoblanadi.

Qofiyadosh so'zlar turkiy, forsiy va arabiy so'zlardan iborat. Masalan: gul, qul-qul, g'ul-g'ul, so'zlari turkiy so'zlar bo'lsa, tag'oful, tajohul so'zlari arabcha so'zlar hisoblanadi.

Qofiyadagi tirkak tovush ya'ni raviy "l" undosh tovush bo'lib ohandorlikni saqlab turibdi. G'azal qofiyasi raviy bilan tugaganligi uchun muqayyad qofiyaga misol bo'ladi.

Qofiya shakli esa quyidagicha: a-a, b-a, s-a, d-a, e-a, g-a, n-a

G'azaldagi "bir tomon" sintaktik birligi radif sifatida qo'llanib, shoirning maqsadi va mashuqa ta'rifi ta'sirini yanada oshirishga xizmat qilgan. Shoir taxallusi maqtada beriladi. G'azal uch asosiy qism: matla', begona bayt va maqta'dan tashkil topgan.

G'azal tili jonli xalq tiliga yaqinligi bilan yanada go'zallashadi. Bu go'zallikni shoir matla'da saj usulini qo'llash, ya'ni ichki qofiyadan foydalanish bilan yanada oshiradi. Badiiy ijod namunalarini yaratishda tabiat, borliq shoirga ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun shoirlar tabiatning yoki borliqning gul, bulbul, sunbul, lola, qushlar kabi obraz va unsurlaridan o'rinli foydalanadilar.

Bir qaraganda, go'yo shoir gul sha'niga bag'shlangan ushbu she'ri orqali muhim bir falsafani ilgari suradiki, bu mumtoz adabiyotda o'zgacha ma'no mazmun kasb etadi. Ya'ni Gul obrazi mumtoz adabiyotda yor, mashuqa, timsoli bo'lib, uni sunbul, lola kabi obrazlar xilma-xilligi yanada, go'zallashtiradi. Bulbul obrazi esa shu gul, ya'ni yor ishqida nola chekkan oshiq- ishqqa muhtalo bo'lgan kishi timsoli hisoblanadi.

Tasavvufiy nuqtayi nazardan esa gul-yor obrazi – butun borliqni, tabiatni yaratgan Olloh timsoli ekanligi bizga ma’lum.

A.Tamkinning ushbu g’azalining matlasida shoir: yoqimli iforini taratayotgan bu gul ko’ngullarni yayratmoqda, lekin uning hidi dilni yayratgani yetmaganday, uni ishq tushgan bulbul nolasi butun olamga g’avg’o solmoqda deydi:

Anqitar xush bo’yini dil yayratar gul bir tomon,
Gul ufori bir tomon, nolai bulbul bir tomon.

Shoir bu baytda ayni paytda bahor fasli xushbo’y hid taratayotgan gullar hididan sarxush bo’lgan bulbul xonishi kabi hayotiy holatni ham bera olgan. demak, tabiatdagi evrilish bir qaraganda ko’zga tashlansada, aslida, yor go’zallikda mutaassir bo’lgan oshiq uning chiroyidan shunday holga tushganki, go’yo mashuqaning chiroyidan tashqari, undan taralayotgan xush bo’y oshiqni gangitib qo’ygan.

Shoir matla’da qaytarish san’atining go’zal namunalaridan har bir baytda juda o’rinli foydalangan.

Masalan: matla’da Radd-ul-aruz il-al-hashvdan mahorat bilan foydalanilgan:

1) 1-misraning oxiridagi “bir tomon” so’zi 2-misraning o’rtasida yana qaytarilgan

Matla’da 2 tomon timsoli yoki ramziy obrazdan foydalanilgan – gul va bulbul obrazlari. Shoir o’z fikrini shu ikki timsol vositasida bera olgan. Shu ruh g’azal oxirigacha yetakchilik qilib, silsila tarzida o’sib borgan.

Matla’da shoir intoq san’atidan mohirona foydalangan. Ya’ni, bulbul oshiq dil izhorini ochib bergan- gulning betakror ifori bulbulni so’zlatib yuborganday taassurot hosil qiladi.

Shuningdek, matla’da mulamma san’atidan ham, ya’ni forsiy va turkiy so’zlarni teng qo’llash san’atidan ham mahorat bilan foydalanilgan:

Masalan: xush – yoqimli,
Bo’y – hid.

Ikkinchi baytga diqqat qiladigan bo’lsak: shoir unda gul va bulbul timsolini rivojlantirib, go’yo gullar bilan bezangan chaman

ichida sunbul o'zgacha chiroy kashf etgan: u xumor ko'z-u, shirin tilini chiqarib zulfiga oro berib ko'zni quvontirmoqda deydi. Sunbul shunchalik betakrorki, gulzor ichra o'zi bir tomon hisoblanadi, go'yo. Ayni paytda, bu bayt mohiyati dunyo bir chamanzor, unda turli gular yaxshi amalli odamlar o'zgacha chiroy hisoblanishi, bunday xislat egasi borliqning – chamanzorning eng yagona “guli” ekanligi ta'kidlanadi. Aslida ham shoir bu timsollar orqali dunyoni chamanzorga qiyoslab, shirinzabon xushxulq va xushamal insonlar uning “sunbuli” ekanligini aytmqda. Baytda tanosub sanatidan o'rinli foydalanilgan. Masalan: 1) zabon, ko'z, zulf so'zlari bir guruhni hosil qilsa; 2) sunbul, nargiz so'zlari ikkinchi guruhni hosil qilgan.

Ayni paytda “sunbul obrazi” o'ziga xos usulda shaxslantirilgan, ya'ni tashxis san'atidan o'rinli foydalanilgan.

Shoir sunbul tarifini keltirar ekan, uning husn-i malohatda tanholigini ishora qiladi.

Uchinchi baytda esa oshiqning- shoirning tariff-u oshiqdari yana o'zgacha yolqin bilan jilolanadi, dard bilan ta'kidlanadi.

Bir tomon sog'ar cho'zibdur lola mast gullar sar,

Mayparastlar bir tomon, har turfa g'ul-g'ul bir tomon.

Endi shoir lola ta'rifini keltirar ekan, uni uni chamanzordagi gullarning betimsoli deb ta'riflaydi. Shuning uchun o'zining chiroyiga o'zi maftun, o'z chiroyidan lol-u hayratda, lolaning bu holati, chamanzorda g'avg'o qo'pdi, ya'ni barchani sarosimaga soldi. Baytda “mayparastlar” degan so'z borki, tasavvufiy jihatdan oshiqdar-ishqparastlar nazarda tutulmoqda. “mast”, “mayparast” so'zlarini qo'llash g'azalning rindona ruhidan darak beradi.

“Lolaning mast” holati esa ilohiy ishqqa muhtalo bo'lgan kishi timsoli sifatida gavdalanadi. Baytda “lola mast” birligi istiora san'atini ham yuzaga keltirgan va baytda qaytarish san'atining “Rad-ul-sadr il-al-hashv” turidan ham foydalangan.

Umumiy planda shoir yorning o'z husnidan behad g'ururli ekanligini, shu g'urur tufayli yakka-yolg'iz ekanligiga ishora qiladi va 4-baytda yorni o'z g'ururidan voz kechib oshiq bilan gul-u

gulshanda sayr qilishga undaydi, noz-u istig'nolar va kirb zararli deb uqtiradi:

Gullibosim, tur ketaylik gul-u gulshan bag'riga,
Bir tomon qolsin g'ururing, ham tag'oful bir tomon.

Shoir, mashuqani endi "Gullibosim" deb ataydi va nido san'atidan o'rinli foydalanadi. Uni o'z sitamlaridan voz kechib, bechora oshiqqa marhamat ko'rsatib, u bilan bu dunyo huzur-halovatini kechirishga chaqiradi. Biroq o'z chiroyidan behad g'ururlangan yor g'urur deb atalgan "nafsni" yenga olarmikan, oshiqqa marhamat qilarmikan?

Shoir 4-baytda ishtiyoq san'atidan juda chiroyli foydalangan: gullibosim, gul-u gulshan.

Oshiq yorga nechog'lik o'tinib murojaat etmasin, u iddaoli dilbar ro'yxush bermaydi. Oshiqning chorlovlari esa 5-baytda yanada kuchayadi:

Bir tomon gulro' jamoling, bir tomon gulning hidi,
Ham sharob tug'yoni bir yon, shisha-yu qul-qul bir tomon.

Oshiq yorga qay tomonga nigoh solmay sening gulday jamoling va gul iforing meni ishq dardiga yanada muhtalo etmoqda, ishq qalbinga misoli shishadagi maydek "qul-qul" to'lmoqda deb nola qiladi. Shoir bu baytda tamsil san'atidan foydalangan: "shisha-yu qul-qul", shuningdek, "Rad-ul-sadr il-al-ajuz"ni ham hosil qilgan. Baytda sharob so'zi ishq ma'nosida qo'llangan bo'lib, "shisha" so'zi esa ko'ngil ma'nosida berilgan. Ya'ni "ishq sharobidan qonib ichgan" ko'ngul behad masrur. Bu holat 6-baytda yaqqol ko'ridadi:

Bir tomon qushlar fig'oni, bir tomon nuq-u kabob,
Jom-u ko'za kulgusi-yu zavqli ko'ngul bir tomon.

Ishq bilan to'lgan ko'ngul zavq bilan qushlar fig'oni va barra kaboblarning bo'yidan mast-u bexud bo'lganki, butun borliq uning ko'ziga yanada jilvakor ko'rinmoqda. Ya'ni, ilohiy, pok ishq bilan limo-lim qalb endi yomonliklarga o'rinqoldirmaydi, ularga parvo qilmaydi, yorning borligining o'zi, u uchun ulug' mukofot, ulkan kashfiyot hisoblanadi. Oshiq yor timsolida o'zini o'zligini kashf

etdi. Shuning o'zi unga yetarli. Begona baytdagi anshu xulosa maqtada yakun topadi.

Oshiq endi yorning jabr-u jafolariga sitamlariga peparvoligiga qayg'urmaydi. Chunki, uning diliga yo'l toppish oson ish emas, u bemuruvvat unga nazar qilmasa-da, oshiq baribir baxtli.

Yor diliga yo'l topmoq Tamkino, oson emas,
Bir tomon ishva-yu naz-u ham tajohul bir tomon.

Shoir ushbu g'azalda bir qator badiiy san'atlarni "erkalik" bilan qo'llay olgan. Ayni paytda, g'azalning boshidan oxir "laff va nashr" san'atidan ham katta mahorat bilan foydalangan

Tamkin g'azallarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u qaysi tilda yozmasin, xalqona ruh va xaqi tiliga yaqinlik, soddalik va ohangdorlik yetakchilik qiladi.

O'zbek mumtoz adabiyotining ko'p vakillari ijodida bo'lgani kabi Tamkin lirikasining ma'lum bir qismini ishqiy g'azallar tashkil etadi. A. Tamkin ham o'zining lirik asarlarida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni, his-tuyg'ularni ifodalashga intildi.

Shoir ishqni, oshqlik mayllarini kuylash timsolida kishilar qalbida hayotga va insonga muhabbat, vafodorlikni, sadoqat, do'stlik va fidokorlik tuyg'ularini tarbiyalashni orzu qilgan. Uning ajoyib fazilatlarga ega lirik qahramoni hayotning ham oshig'idir. Yoinki, butun mavjudotni bino etgan "Xalqoq olam" ning oshig'idir.

Shoirning:

Ey, la'li labing ruhimga quvvat,
Ey, sarvi qading ruhimga nusrat.¹

deb boshlanuvchi g'azali ham ishqiy lirikaning muvaffaqiyatli chiqqan namunalaridandir. Bu g'azaldagi lirik qahramon hayot kishisi, insoniy his-tuyg'ular, nozik kechinmalar egasi sifatida ko'rinadi. G'azalda sho'x ruh, yosh yurakning samimiy tuyg'ulari, ishqiy kechinmalari tasviri jo'sh urib turadi. Uning tili ham sodda, vazni yengil, uslubi (stili) xalq qo'shiqlarini esga tushiradi.

Bu g'azal aruz vanining rajaz bahrida yozilgan. G'azal paradigmasi ya'ni taqte'si: --v/--v/-

¹ Nusrat-ko'makchi, yordamchi.

A'foiyli esa: mus-taf-i-lun

Demak, g'azal rajazi musaddasi mahzuf yoki maqsur vaznida yozilgan.

G'azalning har bir misrasi uch rukndan tashkil topgan, hijolar miqdori 10 (11).

Qofiyadosh so'zlar: **quvvat, nusrat, jannat, ulfat, hujjat, rohat, lazzat, surat, sharbat, minnat** bo'lib, forsiy, turkiy va arabiy so'zlardan tanlangan.

Ohangdorlikni hosil qiluvchi tirgak tovush "t" raviysidir. Tamkin g'azallarining ayrimlarida radif qo'llamagan. Bu g'azal ham radifsiz g'azallar sirasiga kiradi.

G'azal uch qismdan tashkil topgan: matla', maqta' va begona baytdan.

Shoir taxallusi maqtada keltirilgan. G'azal 9 bayt, 18 misradan iborat.

Bizga ma'lumki, mumtoz she'r namunalari tahlilida ikki xil yondashuv maqsadga muvofiqdir. Biz bu haqda yuqorida aytib o'tgan edik. Ya'ni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) ma'no tahlili uyg'unlikda olib borilsa haqiqatga yaqindir.

Zohiriy ma'no – she'rning ko'zga ko'rinib turgan, bir qarashda ilg'ab olinadigan mavjud an'analarga ko'ra chiqariladigan mazmundir. Botiniy ma'no esa she'rdagi tag ma'no bo'lib, shoirning taqdiri yoki o'ziga xos ruhiy olamini, dunyoqarashini aks ettirgan ichki mazmundir.

G'azalning matlasiga nazar tashlasak, oshiqning bemajol taniga, ojiz ruhiga yorning "la'li labi" va "sarvdek qaddi" quvvat va tirgak ekanligi bayon etilmoqda. Ishq yo'liga kirgan oshiq uchun davo mashuqaning har bir jihati bo'lishi mumkin. Oshiq esa bu yo'lda chorasiz holda "ey" deb "nido" chekmoqda:

Ey, la'li labing ruhimga quvvat,

Ey, sarvi qading ruhimga nusrat.

Shoir birinchi baytda tashbeh san'atining go'zal namunalaridan o'rinli foydalangan: la'li lab va sarvi qad. Ma'shuqa tarifini berishda bu o'xshatishlar azaldan mavjud bo'lib, ulardan qay yo'sinda foydalanish shoir mahoratidan darak beradi. Shoir

matla'da ham jisman, ham ruhan quvvat va ko'makchi istagan edi. Buni esa, xayolan bo'lsada ma'shuqa timsolidan topdi, pajmurda ruhi va tanini yanada jonlantirish istagida o'zini mubolag'ali holga tayyorlamoqda, tassavvurini kengaytirmoqda, quvvat manbaini oshirmoqda. Bu holat keyingi misralarda bosqichma – bosqich rivojlanib boradi.

Og'zingni degum baayni kavsar,

Rayhoni xating ruhimga jannat.

Oshiqning birinchi baytdagi holati 2-baytda yanada oshdi.

U endi yorning og'zini kavsar, ya'ni jannat suviga qiyoslamoqda, chiroyini esa jannat go'zalligiga mengzamoqda.

Aslida esa, oshiq uchun yor og'zidan chiqqan har bir kalom "obi hayvon", ya'ni tiriklik suvi kabi vujudiga jon baxsh etadi va uning shakl-u shamoyilida ruh go'zalligini his qilmoqda. Ayni paytda rayhon gul timsoli bo'lib, shoir ma'shuqadan taralayotgan iforning betakrorligi oldida ojiz qolmoqda, undan quvvat olmoqda

Shoir ikkinchi baytda ham tashbeh san'atidan o'rinli foydalangan: yor og'zini kavsarga; ko'rinishini jannatga o'xshatgan.

Uchinchi baytda, oshiqning tashbeh-u tavsiflari o'zgacha ko'rinish oladi. Endi u, mashuqa yuzini oy kabi go'zalligini aytadi va jamolingga nazar solsam, ruhimda shodlik, g'alayon jo'sh uradi deb, ham ruh, ham jism sofligiga, qalb tozaligiga erishadi:

Oy misli desam yuzing chiroyin,

Shodlik jo'sh urgan ruhimga ulfat.

Tasavvufga ko'ra ko'ngilni poklash ham bir ilm. Ko'ngil esa ishq tufayli poklanadi.

Uchinchi misrada o'ziga ulfat izlagan oshiq, katta tuhfaga erishdi. Bu esa to'rtinchi misrada tilga olinadi. Yor chehrasidagi go'zal xoli, oshiqning ishq dardiga davo bo'luvchi hujjat misolidir. Endi uning ko'ngli to'q:

Ul anbarni xat-u xolingni shakli,

Ishq da'vosi uchun ruhimga hujjat.

Ushbu baytda ko'ngli biroz xotirjam tortgan oshiq beshinchi baytda yana ul go'zalning ta'rif-u tavsifiga beriladi:

Mushk bo'yin sochib ul qaro zulfing,
Har lahza berur ruhimga rohat.

Yorning qora sochlaridan mushk-u anbar ifori taralib, bechora oshig'ning qalbiga rohat bag'ishlaydi. Tasavvurda bo'lsa-da, bunday baxtga erishgan oshiq o'zini juda baxtli hisoblaydi.

Yorning oshiq yonidan, hatto, uzoqdan o'tganida kiyimidan esgan nasim- mayin shamol muattar bo'yi bilan uning ko'ngliga lazzat, to'yinish kabi ilohiy bir qoniqishni beradi:

Haqqoki, bu yon esgan nasiming,
Xush bo'yi ila ruhimga lazzat.

Ko'rinadiki, oshiq ruh oromiga erishishni istaydi va go'yo bunga erishganday tuyiladi, ammo, go'zal chehrali ul sanam husnini ko'z-ko'z qilsa, hatto falak ham taloto'p bo'lib, yanada yorishib ketadi. Ne ajab, falak dosh berolmagan bu husn-malohat egasining ruxsoriga ko'zi tushgan oshiqning holini tasavvur qilavering, endi:

Nur sochsa falakka husn-jamoling,
Tug'yonga kirar ruhimda surat.

Xayolan yor jamolidan o'zicha masrur oshiq, uni bir ko'rsa, yana tug'yonga tushadi, ruhiy osoyishtalik poyoniga yetadi, ishq yana junun maydoniga kiradi, endi uni "izga solmoq" uchun ma'shuqaning shirin kalomigina davo bo'ladi:

Shakardan shirin labingni shahdi,
Undan oqadir ruhimga sharbat.

Agar, yor lutf qilsa, rahm etsa, bir og'iz so'z aytsa, oshiqning tomirlarida qon emas, sharbat oqadi va ruhi orom oladi.

Afsus oshiq qanchalik yor yo'lini poylamasin, bu marhamatga erisha oladimi, yo'qmi, buni ham bilmaydi. Oqibat qalb, ko'ngil, ruh ta'nalari ostida minnatda qoladi. Biroq, oshiq hech narsadan umidvor emas, yorning bu dunyoda borlgining o'zi, u uchun ulug' ruhiy barqarorlik hisoblanadi. Shuning uchun qanchalik minnatlar ostida qolmasin, bariga dosh beradi. Chunki, ishq yo'li Haq yo'li ekanligini u ruhiy halovat istab anglagan edi.

G'azalda oshiqning ruhiy halovat, ruhiy orom, ruhiy lazzat, ruhiy hujjat, ruhiy rohat, ruhiy ulfat, ruhiy quvvat va madad istab,

oqibat ruhiy minnatni topgani g'azalning rindona ruhidan darak beradi.

Ayni paytda shoir ishq mavzusi fonida ijtimoiy hayotdagi halovatsizlik, o'zi yashagan davrning o'g'riqli nuqtalariga ham ishora qilgan.

Oqibatda, shoir ruh xotirjamligiga ilohiy ishq, poklik, to'g'rilik, halollik, yurtsevarlik va sadoqat tufayli erishish mumkinligini bildi hamda umr yo'llarida bunga amal qildi.

A.Tamkinning adabiy merosi boy bo'lishiga qaramay, ularning yetib kelgan va hozirgi kunda qo'lga tekkani kamroqdir. Ma'lumki, A.Tamkin o'tmish adabiyotida katta mavqe egallagan lirik janrlarda asar yaratgan. Ammo ularning faqat bir devonga jamlangani hozircha noma'lum va bu devon hali ilmiy muomalaga kiritilgani yoq. Lekin turli bayoz va to'plamalarda A.Tamkinning g'azal va muxammaslari, qasida va musaddaslari, qit'a va fardlari, ruboiy va masnaviylari uchrab turadi. Bizningcha bular shoir lirik merosining hammasi emas. Shunga qaramay, yetib kelgan lirik meros Tamkinning nozikta'b shoirligidan, kuchli qalamkashlardan ekanligidan dalolat bera oladi.

Qayd qilinganidek, Abdurahmon Tamkin eng avval lirik shoirdir. Tamkin shoir sifatida qalam tebratgan vaqtda O'rta Osiyoning turli joylarida yashab ijod etgan shoirlarning asarlari ham keng tarqalgan edi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, shoir Tamkin ham, bir tomondan, o'qish-o'rganish natijasida yaxshi o'rganib olgan o'zbek va qo'shni xalqlar adabiyotidagi ilg'or an'analarni qo'llab-quvvatlab, turli janrlardagi lirik she'rlarni yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamonasining peshqadam shoirlari kabi o'z she'rlariga yashayotgan davr ruhini, nafasini olib kirib, asarlari bilan o'sha zamon badiiy biografiyasining bir sahifasini yozishga hissa qo'sha oldi.

Shoirning qo'limizda ma'lum asarlari shundan dalolat beradiki, Tamkin umumbashariy xarakterga ega bo'lgan ishq va ishqiy kayfiyatlar, inson va insoniylik, adolat va saxiylik haqida so'z yuritish bilan birga zamona nosozligi, undagi adolatsizlik, dag'allik, qo'pollik, inson shaxsiyatini kamsituvchilik, zulm va

zolimlikdan fig'on chekkan, undan noroziligini ifoda etgan. Bu ikki katta mavzuning (ishqiy va insoniylik hamda zamonadan norozilik) bir – biriga qorishib ketishi fonida lirik qahramon xususiyatlari ham, shoirning qarama-qarshilikli kechinmalari ham namoyon bo'laveradi.

Tamkin o'zining insonning oliyjanob fazilatlari bo'lmish ishq va ishqiy kechinmalarni qalamga oladi. Albatta, bu jarayonda u o'zidan oldin o'tgan va zamondoshlari bo'lgan shoirlar singari oshiq va mashuqaning turli holatlarini, oshiqning sadoqati-yu mashuqaning zulmkorligini, shom-u hijron mashaqqati-yu visol onlarining xursandchiligini, mashuqaning o'tlug' ohlari, xasta ko'ngli, dard-u alam o'tida kuygan joni va hokazolarni badiiyat qonunlari asosida tasvirlaydi. Demak, uning g'azallari o'z mazmuni, o'ynoqi va sho'x ohangi bilan yuqorida bayon qilingan fikrlarni isbotlaydi.

Xullas, Tamkin lirikasidagi, mashuqa bir tomondan, an'anaviy mashuqa xususiyatlarini o'zida aks ettirsa, ikinchi tomondan, o'z zamonasida yashovchi real kishi sifatida ham gavdalanadi.

Tamkin o'z lirikasida ana shu qahramonlarning visol va firoq chog'idagi kayfiyatlari va kechinmalarini tasvirlaydi.

A.Tamkin o'zining lirikasida adolatli tuzum va odil hukmron idealidan kelib chiqib, adolatsizlikni va zolimlarni qoralaydi; yuksak fazilatli inson idealini ulug'lab, past va yaramas maxluqlardan nafratlanadi, visol tongini ko'msa, hijron, firoqlarni qarg'aydi, ularni haqiqiy oshiq, ideal inson uchun zindon va qotil deb biladi.

Tamkinning qo'limizdagi merosidan ravshanki, u lirik poeziyaning qaysi bir janriga – g'azal, muxammas, musaddas, qit'a ruboiy, fard, masnaviy va boshqalarga murojaat etmasin, ularda o'zining shoirlik mahoratini namoyish etishga intiladi. Xususan uning ishqiy mavzudagi g'azallarida istixroj, saj san'atlari ko'proq uchrasa, ijtimoiy mavzudagi asarlarida esa tazod, takror, saj san'atlaridan ko'proq foydalanishi seziladi. Ba'zan esa ayrim san'atlar, jumladan, istixroj haddan ortiq ishlatilgani tufayli

g'azalda shaxsiy xususiyatlar ustunlik qilib qoladi, tushunilishi qiyin muammo va so'zlar maydonga keladi. Bunday holat shoirning forsiy tildagi she'rlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Ehtimol, bunday holat shoir lirikasining ya'ni ijodning ziddiyatlar bilan to'laligi mahsuli bo'lishi bilan bog'liqdir. Umuman olganda, Tamkin mazmun va shakl birligi masalasiga, so'z tanosibiga alohida e'tibor beradi, o'zidan oldin o'tgan so'z san'atkorlari - Sa'diy, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy va zamondoshlari ijodiy mahorat maktabining iste'dodli talabasi sifatida ko'rinishga harakat qiladi, o'shalar kabi ikki tilda she'rlar bitadi (Fuzuliyga izdoshlik sifatida hatto uch tilda ijod qilishga urinadi), go'zal sifatlashlar yaratadi, xalq ibora va maqollarini o'rnida ishlatadi, xullas, o'ynoqi va ravon asarlar bitish uchun qalam tebratadi va ularda o'z ruhini namoyon etadi.

3.2. Abdurahmon Tamkin ruboiylarida davr nafasi va hasbi-hol motivlari

Tamkin ijodida ruboiy janri ham o'ziga xos o'rin tutadi. Bizga ma'lumki, ruboiy o'zbek mumtoz adabiyotida keng qo'llanilgan janrlardan hisoblanadi. U hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida, yoki o'lchovlarida yozilishi, to'rt misradan iborat bo'lib, ishqiy, axloqiy, diniy, falsafiy-siyosiy va ma'rifiy mavzularda bo'lishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotda ruboiyning 2 xili borligi aruz haqidagi ilmiy asarlarda ko'rsatib berilgan:

- 1) xosa ruboiylar;
- 2) taronayi ruboiylar.

Ular bir-biridan qofiyalanish tizimi jihatidan farqlanishi haqida ilmga egamiz.

A.Tamkin ijodida, asosan, xosa ruboiylar uchraydi. Shoir ruboiylarida ijtimoiy hayotning turli mavzulari haqidagi, inson ruhiy ruhiy olamining ko'z ilg'amas jihatlari haqidagi mavzular ilgari suriladi va bu shoir yashagan davr og'riqlari bilan qorishib ketadi.

Demak, Tamkin lirikasida ruboiy ham katta mavqe tutadi. Unda mumtoz adabiyotimizdagi yetakchi obrazlar tizimi o'ziga xos mujassamlashgan. Shu bilan birga adib she'riyatini ijtimoiy motivlar bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi.

A.Tamkin hayoti ziddiyatli bir tarzda, adolatsizlik va riyokorliklar ichra kechgan bo'lsa-da, shoir fe'lidagi muloyimlik, hazinlik va hur fikrlilik u yaratgan ruboiylarda ilmparvar oshiqning qalb sadosi va shoir ma'naviy olamining o'ziga xos oynasi bo'lib ko'rindi:

Ko'p pand berdi menga bu zabun zamon,

Ilm tahsili deb yutdim qancha qon.

Ko'p ranjlar chekdim-u bir naf ko'rmadim,

Hech kimsa bo'lmasin menday notavon.

Birinchi misradayoq shoir hayotining og'riqli nuqtalari va charxi bemuruvvatning bevafoqligi haqida oshkora so'zlaydi.

Ikkinchi misrada esa, ilm olmoq yo'lida qanchalik og'ir kunlarni boshidan o'tkazganligiga ishora qiladi. Birinchi misrada shoir ahvolining og'irligiga ishora qilish barobarida, zamonaning o'zi ham "zabun" ahvolda ekanligiga diqqatni tortmoqda. Ikkinchi misra mohiyatida esa o'zi nochor, zabun ahvolga kelib qolgan ijtimoiy hayotda ham ilm-ma'rifat yo'lida qonlar yutib bo'lsa-da, uni rivojlantirgan "ilm ahliga" ishora qilmoqda. Demak, ilm yo'lga – haq yo'lga kirgan kishi uchun zamonning qanday holda bo'lishi farqsiz, u bu yo'ldan qaytmaydi, degan xulosa beriladi.

Keyingi misrada ana shu hodisa-sababning oqibati ko'rsatilmoqda: bu o'rinda ham vaqt, ham fursat, ham muddat tushunchasiga tayanilmoqda. Uning falsafasicha ilm yo'lida qancha qonlar yutib, ranjlar chekmasin bu yo'lning mashaqqatlari aro hali ancha notavon – ilmda ojiz va bilimsizligini anglaganini ta'kidlaydi. Shoir keyingi ikki misrada ham mantiqiy, ham ma'naviy ziddiyatni ilgari suradi. Demak, shoir nazdida ilm yo'li eng ulug' yo'l, lekin eng mashaqqatli yo'l, bu yo'lga chiqqan so'fiy banda-notavon kishi misolida, haq yo'lidagi "naf" dan ko'ra ozorlari ko'p yo'lda, degan g'oyani ilgari suradi.

Ruboiy qofiyasi **zabun, qon, notavon** so'zlaridan iborat bo'lib, asosiy g'oyani ochishda muhim omil bo'lgan. Shoir bu ruboiyda och qofiyadan, ya'ni to'liqsiz qofiyadan foydalangan va raviy sifatida "n" undoshi ohangdoshlikni hosil qilgan.

Ruboiyda mubolag'a san'atidan – tablig' mubolag'adan mohirona foydalanilgan. Masalan: "qancha qon yutdim", deganda, aslida, ilm yo'lining mashaqqat-u zahmatlariga ishora, ta'sirli holda, obrazli qilib ifoda etilgan.

Keyingi ruboiy oqil va donishmand insonlar haqida bo'lib, ularga qarama-qarshi holda johil va nodon odamlar obrazi qo'yiladi:

Hayotda hamnafas bo'lsa gar oqil,
Oz-oz suhbatidan bo'larkan komil.
Ey jonim, shu panddan chiqar xulosa,
Qoch, qayda duch kelsa befahm-u johil.

Shoir insonlarni komillik sari undab, bu yo'lda oqil odamlar yonida bo'lishga chaqiradi va bu pandni o'zi uchun ham dasturulamal hisoblab, qayerda befahm insonlar duch kelsa, ulardan qochib qutulmoqni maslahat beradi, go'yo.

Aslida ushbu ruboiy mohiyatida juda katta falsafiy ma'no mujassamki, moddiy olam va ruhiy olam o'rtasidagi kurashga ishora bor. Inson tashqi dunyodagi qarama-qarshi kuchlar o'rtasida qay birini tanlashidan oldin, o'z vujudidagi ziddiyatli kurashni yengmog'i, ruhiyatidagi illatlarni bartaraf etmog'i, aniqrog'i, nafsini jilovlay bilmog'i kerak. Ana shundagina komillik sari yo'l tuta oladi.

Ushbu ruboiy – xosa ruboiyga mansub.

Qofiyalari: oqil, komil, johil so'zlari.

Qofiya shakli: a-a, b-a.

Qofiyadagi tirgak tovush "l" undosh tovushi.

Qofiyada muqayyad qofiya turidan foydalanilgan.

Qofiyaning o'zidayoq tazod san'ati hosil qilingan: oqil-johil.

Shuningdek, mukarrar san'atidan – "oz-oz"; nido san'atidan – "ey jonim"; tanosib san'atidan – "oqil, komil; johil, befahm" - ham foydalanilgan.

A.Tamkinning yana bir ruboiysi odamiylik haqida bo'lib, unda inson sharafiga, ehtiromga, hurmatga odamiyligi bilan erishadi, sen ham shu fazilat egalari bilan do'st tutin, bunday ulug' jihatdan xoli bo'lgan "noxalaf" – odamiylikdan yiroq bo'lgan kishilardan uzoq bo'l, degan g'oya ilgari suriladi.

Odamiylikdan topar odam sharaf,
Anglamas bu so'zni aslo noxalaf.
Bo'lma hamdam noxalafga, jonim-ey.
Topmasin desang agar umrim talaf.

Shoir ruboiy orqali, insonlarga berilgan umrni mazmunli, sharaflil o'tkazish, so'ng afsus – nadomat chekmaslik kerakligini uqtirib, barchani yaxshilikka undaydi, yaxshilar yoniga chorlaydi.

Ushbu ruboiy ham xosa ruboiylardan. Qofiyaga olingan so'zlar: **sharaf, noxalaf, talaf** bo'lib, raviyni "f" tovushi hosil qilmoqda va u muqayyad qofiya hisoblanadi.

Shoir bu ruboiyda "sintaktik zidlantirishdan" foydalana olgan. Ya'ni she'r mohiyatida hayotdagi ikkita qarama-qarshi kuch haqidagi xulosa berilgan.

Shoirning keyingi ruboiysi esa, rindona ruhda yozilgan. Bir qaraganda, umr o'tib borayotgan bo'lsa-da, inson orzu qilishdan to'xtamasligi, biroq orzuga yetmoq dushvor, hali bu kun kelmadi, menda esa vaqt yo'q, dunyo g'amida dilni dog'lab, qora qismatdan qora tuproq sari borgum, afsus, lablarim bir bor orzu jomidan "qoniqish suvi"ni sipqormadi, orzulariga yetganidan yayrab kulmadi, degan fikr ilgari suriladi.

Umr o'tar, tilimda orzuning nomi,
Kelmadi orzuga yetmoq ayyomi.
Dilda dunyo dog'i, tuproqqa kirgum,
Labimni ho'llamay orzuning jomi.

Bu ruboiy A. Tamkinning surat va siyrat olamini yoritishga misol bo'ladi va shoir umrining oxirlarida yozilganligidan dalolat beradi. Ruboiy mohiyatida shoirning qalb olami ko'zga tashlanadi: qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, aqlan va jismonan barkamol, o'z yo'lini - og'ir bo'lsa-da - tanlagan so'fiy banda qiyofasida gavdalanadi.

Ruboiyda mutlaq qofiyadan foydalanilgan. Masalan: **nomi, ayyomi, jomi.**

Raviy sifatida “m” tovushi kelgan.

Qofiya shakli: a-a, b-a bo’lib, xosa ruboiyga misol bo’ladi.

Ko’rinadiki, A. Tamkin ijodining katta qismini tashkil etgan ruboiylarda ham dunyoviy, ham ijtimoiy, ham ruhiy olamdagi masalalar qalamga olingan. Yoki, insonning ichki va tashqi go’zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglashda kishilarni yo’ldan ozdirguvchi nafsni yengish: yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari, yana johillik, ilmsizlik, manmanlik kibr-u havo, dunyoparastlik, mansabparastlik, shahvat, ko’ngli torlik, g’azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg’aydigan, uni Ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar zarari haqidagi ibratli fikrlar ilgari surilgan.

A.Tamkin ruboiylari umumbashariy g’oyalarni ilgari surganligi bilan bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Ular yoshlarimizni ruhan, aqlan va ma’nan yetuk, sabrli va tadbirli qilib tarbiyalashdek nozik ishda ibrat namunasi bo’lib xizmat qila oladi.

Abdurahmon Tamkin masnaviylari

Abdurahmon Tamkin ijodining yana bir jihati u yaratgan masnaviylarda yaqqol namoyon bo’ladi. Shoir masnaviy janrida o’ziga xos uslub va usul yarata oldi hamda barakali ijod qildi.

U yaratgan masnaviylarda, avvalo, o’z yurtini behad sevuvchi, uning kelajagi, buguni uchun qayg’uruvchi vatanparvar inson qiyofasi gavdalanadi. Tug’ilib o’sgan makonini jondan sevgan bu oshiq, uning ta’rifini keltirishda o’zgacha sodda tashbehlar, murakkab istioralar, qochirimli ko’chimlar, xalqona sodda ifodalar yaratadi. Masalan, shoirning “Buxoro ta’rifi” masnaviysi shu asnoda ona shahriga bitilgan madhiyadir.

Masnaviyning o’ziga xos ayriligi shundaki, XX asrning 30-yillarida Hamid Olimjon O’zbekistonni “Chiroylidir go’yo yosh kelin deb” ta’riflagan bo’lsa, A.Tamkin esa XX asr boshlaridayoq ona shahri - Buxoroni “Shaharalar ichida kelin shahar” –deb ta’riflagan edi.

Demak, vatanni, tug'ulib o'sgan maskanni eng go'zal o'xshatishlar, qiyoslashlar bilan bezash san'ati har bir shoirning "dil qonidan" oqib chiqqan izhori hisoblanadi. Abdurahmon Tamkin ham o'z shahrini behad ulug'lagan shoir sifatida gavdalanadi:

"Buxoro ta'rifida"

Shaharlar ichida tanho Buxoro,
Jahon chehrasida xoli dilor.
Xudovandi Karim, fayzbaxshi komil,
Uning xalqin yaratmish dono, oqil,
Qilib xalqi hayr, ehsonga odat,
Saxoda Hotam Toydan ziyoda.
U dasturxon agar yozsa, o'shal on,
Olar zavq ne'matidan qancha
mehmon.
Musofirga uyidan joy berar u,
Qilib hurmat, bisotini yoyar u.
Musofir och esa, nonini bergay,
Na tanho nonini, jonini bergay.
Agar mehmon xatosin sezsa nogoh,
Yuziga solmagay aybini aslo.
Buxoro ilm-u odobga makondir,
Bori xalqi muhib-u mehribondir.
Shaharlar ichida tilsim shahardir,
Unga ag'yori ham hayron qaraydir.
Halolligi hayo birla munavvar,
Shu xislatdan rivojidir muqarrar.
Bu mulkning shuhratin sezgan zahoti,
Ne shohlar shul tomon surmadi otni.
Shaharlar ichida kelin shahar bu,
Quchog'i dur to'la oltin shahar bu.
Uning xoki fazilatdan qorilgan,
Xudo in'omidan xossa yaralgan.
Havosi misli jannatdir shukuhlik,
Shu bois yot erur unda qabihlik.

Kecha-kunduz unga shohlar tikib
ko'z,
Uzishar jon misli shami nimso'z.
Uning hasrati-la o'tgusi oxir,
Gohi pinhon, gohi maxfiyu zohir...

“Haqiqiy san’atkor...., - deb yozadi E.Xeminguey, - mazkur sohada undan oldin nimaiki kashf qilingan bo’lsa, nimagaki erishilgan bo’lsa,o’zlashtiradi va o’zi keragini nokeragidan shunday tezlik bilan ajratib saralaydiki, go’yo u tug’ulishdayoq barcha bilimlar bilan qurollanib, dono bo’lib tug’ulgandek ko’rinadi, chunki oddiy odam umr bo’yi urinib egallaydigan donoliklarni haqiqiy iste’dod goho ko’z ochib yumguncha tez egallaydi...”. Shu ma’noda qaraydigan bo’lsak, g’arb adabiyoti vakilining bu fikrlari sharqda allaqachon o’z isbotini topgan va o’zidan kechgan, lekin o’zligidan kechmagan sara farzandlari – shoirlari bilan dunyo ijod olamining tamal toshini allaqachon qo’ygani edi. A.Tamkin shaxs sifatida ham, shoir sifatida ham bu nomga munosiblar safidan o’rin oladi.

A.Tamkin haqiqiy shoir. U o’sha zamon va ijtimoiy muhit bilan yuzma-yuz turib, haqiqatni ifodalashga qodir shijoatli shaxs. Adabiyotimiz tarixining hamma davrlarida she’r yozadigan iqtidorli, iqtidorsiz qofiyasozlar ko’p bo’lgan. Ularning birlari shuhrati va shaxsiy manfaatlarini ko’zlab she’rbozlik qilishgan. Yana boshqalari qo’rqoqlik, e’tiqodsizlik sababli iste’dodni maddohlik bilan nobud etishgan va hokazo. Lekin haqiqiy shoirning - otashin shoirning dunyoga kelishi, xuddi bugungidek, har doim ham kamdan kam bo’lgan .

Har qanday iste’dodli shoir atrof yolg’on, aldov va illatlarga to’lganligini o’tkir his eta boshlaganida haq so’z tolibiga aylanadi. Shunda u o’z manfaatini emas endi yurt, millat va xalqning kelajagini o’ylay boshlaydi. Zamona nosozliklaridan, turmush ikir-chikirlaridan balandda tura oladi. Tamkin ana shunday ma’nodagi shoir sifatida qalam tebratdi:

Ko'p pand berdi menga bu zabun zamon,
Ilm tahsili deb yutdim qancha qon.
Ko'p ranjlar chekdim-u bir naf ko'rmadim,
Hech kimsa bo'lmasin menday notavon¹.

Har qanday zamonlarda adabiyotning o'z erki, dunyodagi jamiyki yolg'on va soxtaliklarga sochadigan nafrati, abadiyat umriga teng armonlari bor. Jahondagi barcha daholar buni u yoki bu tarzda bilganlar. Lekin bir achchiq haqiqatdan ham ko'z yumub bo'lmaydi: o'tmishda goho talantli shoirlar ham saroy adabiyoti g'oyaviy yo'nalishlari chegarasida qolib, shohlarni madh etish, ularning shafqatsizlikdan iborat zafarlarini ko'klarga ko'tarib maqtashlardan o'zlarini tiya olmaganlar. Bunday paytlarda, albatta, xalq taqdiri chetlab o'tilgan, zahmatkash aqli, shuuri, quvonch va alamlari orqada qolgan. Bu esa ba'zan shoirdagi samimiyatning yemirilishigacha olib brogan.

Lekin A.Tamkin maddoh shoir sifatida qolmadi, bu esa shoir turmushining faqirona yakun topishiga sabab bo'ldi va uning she'riyati avvalo shu jihati bilan ibratlidir.

A.Tamkin ijodida g'azal, musammat, muxammas va masnaviy janrlari o'sha davr adabiyoti ruhi bilan hamohang tarzda an'anaga izdoshlikka asoslangan bo'lsa, qit'a janri esa yangi qiyofa kasb etgan.

Qit'a shoirning o'z davridagi ijtimoiy –siyosiy voqealarga munosabati, ta'limiy qarashlari hamda boshqa turli masalalar borasidagi pozitsiyasini belgilashda muhim o'rin tutadi.


Chunki qit'alar aksar holda shoirning muayyan vaziyatdagi taassurotlarining bevosita ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bu davrda ijod etgan shoirlarning deyarli barchasi qit'a janrida qalam tebratgan. Mavjud qit'alarni mohiyat e'tibori bilan ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh ijtimoiy, ta'limiy xarakterda bo'lib, ularda o'z ahvolidan shikoyat, zamondan, falakdan norozilik, kishilardagi salbiy xususiyatlarga nafrat, yuksak fazilatlar targ'ibi va hatto ayrim hukmdorlar madhi kabi motivlar

¹ "Buxoriylar bo'stoni". S. Vohidov. Toshkent. 1998. 153- bet.

ko'zga tashlanadi. A.Tamkin ijodida birinchi guruhdagi qit'alar yetakchilik qiladi.

Misol:

Bar qalbi inson bohama oloyishu riyo,
Bori gironi shavq hisoni ustuvor kard
Bar tamai zaif ki shud muhammali ziyo,
Toqati bohamli o' natavon kard hech shay'¹



Qit'a

A.Tamkinning qo'limizda mavjud bo'lgan devonida qit'a janri alohida o'rin tutadi. Ularda shoirning butun ruhiy kechinmalari, falsafiy-axloqiy qarashlari, o'zi yashagan tuzumga munosabatlari o'z ifodasini topgan.

Adabiyot va san'at asarlarini baholashda insoniyat o'z ilmiy salohiyatidan kelib chiqib baho beradi, ba'zan yanglishadi. Lekin vaqt hukmi – bu eng odil hukm, eng to'g'ri bahodir. U har doim inson badiiy tafakkuri bilan yaratilgan asl durdonalarni, haqiqiy san'at asarlarini zamonlar, asrlar, odamlar xurujidan omon saqlab adabiyotga yo'llab turadi O'z navbatida ularni abadiylik elagidan ham o'tkazadi. Tarix zarvaraqlarida abadiyat saltanatidan o'rin olgan asarlar esa mangulik timsoli bo'lib qoladi. Bunday badiiy durdonalar xalqning muqaddas ma'naviy boyligi sifatida hech qachon qadr – qimmatini yo'qotmaydi. Ularda ilm va ma'naviyatga daxldor odamlar hamma vaqt, hamma zamonlarda qalblarini hayajonga soladigan, ruhlariga yaqin jihatlarni topadilar. Xuddi shu oliy fazilat A.Tamkin she'riyati uchun ham to'la xosdir.

Shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, A.Tamkin devonidan o'rin olgan poetik janrlardan biri - qit'a shoir badiiy olamining go'zal namunasi sifatida namoyon bo'ladi va muallifning botiniy va zohiriy qiyofasi chizgisi sifatida asrlar osha muallif haqida ma'lumot beradi.

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337.3-b varaq

Bizga ma'lumki, "qit'a" so'zi (ko'pligi muqattaot) arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "parcha", "bo'lak" demakdir. Istilohda qit'a o'zining mustaqil poetik belgilariga ega, tematik yo'nalishi aniq, chegaralanmagan ikki yoki undan ortiq baytli she'r ma'nosini bildiradi.

Eron olimi Muhammad Rizo Doyi Javod qit'ani shunday ta'riflaydi. "Biror narsaning parchasi lug'atda qit'a deb ataladi. Adabiy istilohda ikki baytdan kam bo'lmagan, o'ziga xos qofiya va vaznga ega bo'lgan she'rlarga qit'a deyiladi. Qit'ada yagona bir maqsad bayon etiladi va u mantiqan intihosiga yetkaziladi"¹.

Qit'a janri, avvalo, arab va fors adabiyotida yuzaga kelgan. Bu janr arab adabiyotidan O'rta Osiyo xalqlari she'riyatiga ancha osonlik bilan ko'chib o'tgan. Ya'ni, bunga qit'aning oldindan belgilangan poetik qonun, an'anaviy mavzu, badiiy vosita va obrazlarga tobe emasligi muhim o'rin tutgan bo'lishi kerak.

A.Tamkinning bir tomondan, arab va fors adabiyotidan yaxshi xabardorligi, ikkinchi tomondan esa, an'ana va ustozlarga ehtiromi va milliy she'riyatni to'plangan tajribalar asosida bilishi uning uchun qit'a janrida ishlashga qulay imkoniyatlar bergan. A.Tamkin qit'ada ijtimoiy – axloqiy masalalar bilan qiziqadi. O'z hayotidan, shaxsiy kechinmalaridan so'zlaydi, erk uchun, insonga xos eng oliy tuyg'ular uchun qattiq qayg'uradi. Shoir haqiqat yo'li – bu ilm yo'li, ilmsiz hayotning sobit haqiqatlarini anglab bo'lmaydi deydi. Shuning uchun u odamlarni o'z hayotlarini ilm nuri bilan yoritishga, dunyo sirlarini mukammal bilishga undaydi.


A.Tamkin ayrim qit'alarida didaktik mulohazalarini, axloqiy qarashlarini bayon qilgan. Masalan, u bo'lar – bo'lmasga vaysayveradigan, mulohaza va andisha tuyg'usidan mahrum, ikkiyuzlamachi, johil, kamtarlikdan benasib, uyatsiz odamlarga munosabat bildirgan.

Masalan:

"Juz'i on yagonaki, az obu-xok paydo kard
Badin shamoyil neku vujudi insonro
Ze obu xok naylor ast suvrati naqqosh (niqosh)

¹ Doiy Javob. Zeboyhoi suxan yo ilmi dar zaboni forsiy. Isfihon. 1335 hijriy. 318.


Ze dilraboyi kashad suyvi xushtan jonro
 Sepas batag'ayyuri ahvol kuvna-kuvnai hakim
 Namod 'alqayu, muzg'a kunad ustuxonro"¹.



Shoir qit'alari orasida hasbi-hol shaklidagi uning tasavvufiy qarashlari, his-tuyg'ulari ta'rifiga bag'ishlanganlari ham bor.

Masalan:

Xohad kunad bado mani yak qatra sad muhit ,
 xohad nahdi bado mani yak kard sad samo
 Muxtoru muqtadiru tavono hakim o'st
 Bar kori o' nah ro bat'i chununi charo²




Yoki:

Bar qalbi inson bohama oloyishu riyo, bori gironi shavq hisoni
 ustuvor kard
 Bar tamai zaif ki shud muhammali ziyo, toqati bohamli o' natavon
 kard hech shay'
 Oxir nihod dar dili inson mubtalo, to bar kashad bajonibi xud kam-
 kam oqibat

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 3-a varaq

² Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 3- a varaq

Vosil kunad bavasli xudi on shohid qazo, va alayhi tavakkaltu va huva rabbul arshil azim.¹



A.Tamkinning yuqoridagi qit'alarida uning ijodiy salohiyati nechog'lik yuksak va go'zalligi ajralib ko'rinadi. U ko'p qit'alarida ahvol ruhiyasini, dil dardlarini, ijtimoiy qarashlarini, umuminsoniy fikrlarini yozadi. Ular katta ilmiy-adabiy ahamiyatga ega bo'lib, shoir hayotini, qalb va ruh olamini teran anglashga yordam beradi.

A.Tamkin ijodining aksariyati tojik tilida bitilgan bo'lsa-da, uning turkiy tildagi she'rlari ham benihoya go'zal shakl va g'oyaga egadir.

Shoirning tojikcha she'rlarida orifona ruh yetkchilik qilgan bo'lsa, arabcha she'rlarida ilohiyot bilan bog'liqlik ko'zga tashlanadi, turkiy tildi bitilgan she'rlarida esa har ikkala ruh oshiqlik bilan chambarchas bog'liq holda ilgari suriladi.

Tamkin she'rlarida Xalloqi Olamning sinoatlari oldida, lol-u hayronlik oqibatida, nekbinlik kayfiyatidagi misralar ham uchraydi:

“Zaminro muxalliq, samoro mutabbaq namud in hama shaybu bolo mukammal”².



Ko'rinadiki, shuning o'zidayoq shoirning tiyrak bezovta ruhini, o'tkir qalamining ta'sirchan kuchini, o'z davriga nisbatan favqulotda jasoratini ilg'ab olish qiyin emas.

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 3- b varaq

² Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 2-b varaq.

Tamkin o'zi yashagan jamiyat illatlarini bartaraf etish uchun tinimsiz harakat qildi, mamlakat va millat taqdiri uchun ilm-ma'rifat yo'li to'g'ri ekanligini ilgari surdi; millatdoshlarining to'laqonli hayot va turmushga loyqliklarini isbotlashga urindi, biroq uning sohirqalb vujudi beqiyos to'siqlarga uchradi, shoir harakatlari bekor ketdi, lekin shoir to'xtamadiva buni ijodida namoyon eta boshladi.

Tamkin barchani: amaldorlarni, xalqni, o'zaro ahil va hamjihat bo'lib yashashga, berilgan umrni foydali ishlarga sarflashga undadi.

“Qit’a:

Tavono karimiki ro'zi naxust

Bobi karam ruyi ashho bishust (بشو است)

Ke har shay' azv shud digar bahravar

Che dono, che nodon, che mahkam, che sust

Baran bahra az xoni ehsoni u.


Che tarso, che mo'min, che chobuk, che chust.

Munazzami jahon shud bahukmi hakim

Shud az vay durusti har nodurust .

Na juvhar batanhoyi shud kamyob”¹.

Qarang, asl ko'rinishi:




¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 1- b varaq

Yuqoridagi misralardan ayonki, Tamkin yashagan davrda ijtimoiy hayotdagi vaziyat nihoyatda murakkab, oddiy xalq uchun nomunosib va nomuvofiq edi. Bu shoir qalbini larzaga solgan. Uning nazdida bunday nomutanosib hayot tarzining sababchisi ham begonalar emas, ayni bir millatga mansub bo'lgan jamiyat a'zolarining o'zaro noittifoqligi, boshliqlarning manmanligi-yu, adolatsizligi kabilar edi.

Ya'ni:

“Shahanshahiki bud qahramoni mulki azal,
Ki xohad har chi kunad gar baqahr ongizad”¹.


(Qarang, asl nusxa)



A.Tamkin o'z zamonasining kishisi sifatida bularning barchasini taqdir hukmi deb biladi va bunday illatlarni keskin qoralaydi. Ya'ni, Yaratguvchining marhamatidan benasib bo'lgan iblisning harakatlariga mengzaydi. Shoir butun umri davomida riyokorlarga qarshi kurashdi: a'moli, so'zi va qalami bilan.

Qarang:

“Har solayi ibodat bayak juy naxirad
Bajoyi sajda agar jabha bar zamin rizad
Nadidi toati iblis oqibat hamaki
Ba yak inod bagardani chuv tavq ovizad”²



Tamkinning ijtimoiy mavzuda yozilgan asarlarida bir qaraganda zamona hukmdorlari va xalq timsoli, ularning zavoli va kamoli aytilgandek ko'rinsa-da, mohiyatan shoir ilohiy qudrat egasining adolatli hukmini talqin etganini anglash mumkin. Bu

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 2- a varaq

² Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. . №337. 2- a varaq

shoirnig tasavvufiy qarashlaridagi o'ziga xoslik sifatida ko'zga tashlanadi.

Yoki, bir qarashda oshiqona ruhda yozilganday ko'ringan ayrim g'azallarda esa, mazmuniga teranroq nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning mohiyatida ijtimoiy ohanglarni kuzatish qiyin emas.

Masalan, oshiqning o'z yoridan shikoyati asnosida, lirik qahramonning o'z zamon va zamondoshlariga bo'lgan munosabati ham aks etgandek tasavvur uyg'otadi.

Tamkin yashagan davr va uning hayot yo'lida uchragan murakkab holatlar, shoir ijodiga o'z ta'sirni o'tkazmay qo'ymadi.

A.Tamkin she'riyatida she'riy san'atlardan foydalanish mahorati original mohiyat kasb etadi. Shoir fors-tojik va turkiy adabiyotdagi so'z qo'llash san'atini o'ziga xos usulda kashf egan.

Zero, ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat-markazida bo'lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarni hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo'llanga she'riy san'atlarning rang – barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmuni ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan.

Adabiyotimiz tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohitini ko'z-ko'z qilish, uning xilma-xil

san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosining ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi ifodasi bo'lib kelgan.

Tamkin she'riyati mumtoz she'riyatimizning eng go'zal namunalaridan bo'lib, shoir har bir she'r unsurini qo'llashda an'ana va ustozlar ruhini sedan chiqarmagan. Bu shoirning qofiya qo'llashdagi mahoratida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bizga ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda qofiya badiiyati asosiy qirralardan biri sanalib kelgan. Ijodkorning salohiyati she'rlarda qo'llanga qofiyalarning g'oyalar mohiyatini, timsollar qiyofasini ochishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ma'naviy teranligi, ohangdorligi, jilo va jozibasi bilan ham belgilangan. Qofiyaning xilma – xil turlari va san'atlaridan, vazn va qofiya munosabatlaridan o'rinli foydalanish shoir mahoratining muhim jihatlaridan biri hisoblanga. Shuning uchun ham har qaysi ijodkor qofiya ilmini diqqat-e'tibor bilan o'rgangan, yetuk malik ul-kalom shoirlarning bu sohadagi san'atkorligidan ta'lim olib kalom topgan.

Ma'lumki, qofiya she'riya asarlarda ifodalanayotgan ijtimoiy-axloqiy g'oyalar, teran falsafiy mushohadalarni badiiy so'z vositasida jozibali va ta'sirchan aks ettirishning muhim vositalaridan biridir. Har qaysi misra, bayr, banddagi qofiyalarda, qofiyadosh so'zlarda shoirning g'oyaviy badiiy niyati o'z tajassumini topadi. Ijodkor qofiya vositasida o'z o'quvchisi diqqatini she'rdagi eng muhim fikrlarga jalb qiladi. Qofiyadosh so'zlar asarda gavdalantirilayotgan lirik yoki epik timsolning ma'naviy qiyofasini chizishga, ularning axloqiy tamoyillari: tafakkur olami, tuyg'ulari, orzu-armonlarini yorqin aks ettirishga xizmat qiladi.

Qofiyalar she'riy asar musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlashning asosiy omillaridan sanaladi. Qofiyadosh so'zlar tarkibidagi har qaysi tovush misra, bayt, bandga alohida jilo, tasirchanlik bag'ishlaydi.

Qofiyaning she'riy asarda tutgan o'zrni va ahamiyatini to'laroq, mufassalroq anglab yetish uchun qofiya ilmi asoslari: qofiyaning tuzulishi va turlari, sheriy janrlarning qofiya xususiyatlari, qofiya san'atlari va xatolari, vazin va qofiya, radif va qofiya munosabatlari mazmuni va mohiyatini atroflicha bilish zarur

Tamkin she'riyati g'oyaviy- badiiy jihatdan g'oyat go'zal bo'lsa, uning shakliy jihati ham benihoya betakrordir.

Ayniqsa, uning qofiya tanlashdagi mahorati, raviylarni qo'llash usuli ham an'anaviylik, ham o'ziga xoslikni yuzaga keltirgan.


O'zbek she'riyatida keng qo'llangan qofiya turlaridan biri mujarrad qofiya hisoblanadi. Bu qofiya ikki xil turga bo'linib, uning har ikki xil ko'rinishini A.Tamkin ijodida mohirona qo'llanganligining guvohi bo'lamiz.

Mujarrad qofiyaning birinchi turida raviy cho'ziq unidan iborat bo'lib, unda 3 cho'ziq unlidan boshqa biror harf ishtirok etmasligi kerak.

Masalan, A.Tamkin ijodida:

1. Ki har che mekunad on xub mekunad onroo

Che g'am xure tu ze budu nabud dar dusro¹



Yoki:

2. Shaharlar ichida tanho Buxoroo

Jahon chehrasida xoli diloro²

Birinchi baytda "onro- dusr" qofiyalari; ikkinchi baytda esa "Buxoro-diloro" qofiyalari mujarrad qofiya bo'lib, raviysi cho'ziq "o" unlisidir.

Mujarrad qofiyaning ikkinchi turi undosh bilan tugallanib, shu undosh raviy hisoblanadi va undan oldin istalgan qisqa unli kelishi mumkin. Bu unli tavjih deb yuritiladi.

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 3- a varaq

² Buxoriylar bo'stoni. S.Vohidov. Yozuvchi. T. 1998. 152-bet

Demak, mujarrad qofiyaning 2-turi bir qisqa unli + undoshdan tashkil topadi.

A.Tamkin ijodida ilmi aruzning nechog'lik mukammalligi va ustozlarga izdoshlik ehtiromining bequsurligi bunda ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan:


1. Odamiylikdan topar odam sharaf

Anglamas bu so'zni aslo noxalaf¹

Yoki;

Darondam ze ashyo na budu zuhurki, xud budu tanho bizoti
ajal

Pas on ofarid insu jinu malak ki har yak ba nav'i digar in
jumal²



Berilgan birinchi baytda “sharaf – noxalaf” so'zlari qofiyadosh bo'lib, “f” undoshi raviy, undan oldingi “a” unlisi tavjih bo'lib mujarrad qofiyani hosil qilgan.

Keltirilgan ikkinchi forsiy baytda esa, “ajal- jumal” so'zlari tarkibidagi “l” undoshi raviy, ulardan oldingi qisqa “a” unlisi tavjih bo'lib kelib, mujarrad qofiyani hosil qilgan.

Demak, A.Tamkin ijodida mujarrad qofiyaning har ikkala turi ham keng qo'llanilgan.

Yuqorida aytganimizdek adabiyotshunosligimizda qofiyaning talqin etilishida ikkinchi bir qarash ham borki, A.Tamkin ijodini bu nuqtayi nazar bilan ham o'rganadigan bo'lsak bir qator go'zal namunalarga guvoh bo'lamiz.

Masalan, qofiyalar raviy harfi bilan tugallanishi yoki undan keyin harflar ham kelishi mumkin. Ana shunga ko'ra, raviy bilan tugallangan qofiya “muqayyad” qofiya deb atalgan. Raviydan so'ng harflar kelgan qofiya esa “mutlaq” qofiya deb atalgan.


¹ Buxoriylar bo'stoni. S.Vohidov. Yozuvchi. T. 1998. 152-bet

² Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 2- b varaq

A.Tamkin forsiy va turkiy tildi yaratilgan ijod namunalarida muqayyad qofiyadan ancha sermahsul foydalangan ya'ni, aksariyat she'rlarida muqayyad qofiyani qo'llagan.

1. Sanoyuki loyiq bozotash bud, magar xubba-xud guyad az ro'yi juvd.

Ze mumkin na mumkin sanoyi qadim nubuvvadro che yoro bud vasfi bud¹.



Yoki:

2. Xudovandi Karim, fayzbaxshi komil,
Uning xalqin yaratmish dono, oqil².

Adabiyotshunoslikda raviydan so'ng harflar keluvchi qofiya usuli qisman murakkabroq bo'lib, unda raviydan keyin keluvchi har bir harfning o'z o'rni va turlicha nomi bo'ladi. Chunonchi:

- raviydan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli "vasl" deb atalgan;

- ikkinchi ya'ni vasldan keyin turuvchi undosh yoki cho'ziq unli "huruj" deb atalgan;

- uchinchi ya'ni hurujdan keyingi undosh yoki cho'ziq unli "mazid" deb atalgan;

¹ A.Tamkin devoni. Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondi.Nº 337. 3-b varaq

² Buxoriylar bo'stoni. S.Vohidov. Yozuvchi. T. 1998. 152-bet

- to'rtinchi ya'ni maziddan keying undosh yoki cho'ziq unli "noyira" deb atalgan.

Agar harflar noyiradan keyin davom etsa, har qaysi undosh yoki cho'ziq unli shu nom bilan, ya'ni "noyira" deb yuritilaveradi.

Vasl, huruj, mazid, noyira eski yozuv bo'yicha yoziladigan harflardir. Ma'lumki, eski o'zbek yozuvida qisqa unlilar (harakatlari) yozilmaydi.

Misol:

Hozirgi yozuvimizda esa, raviydan so'ng shunday unlilar kelsa, qisqa unli sifatida yoziladi, albatta. Biroq ular ham turlicha ataladi.

Masalan:

- raviyning harakatini ifodalovchi qisqa unli "majro" deb ataladi;

- vasl, huruj, mazid, noyiraning harakatini ifodalovchi qisqa unlilar esa "nafoz" deb yuritiladi.

Qofiya ilmidagi bu holatni A.Tamkinning quyidagi ruboiysi misolida ko'raylik:

Umr o'tar, tilimda orzuning nomi,

Kelmadi orzuga yetmoq ayyomi.¹

baytidagi "nomi-ayyomi" qofiyalari mufrad bo'lib, "m" raviy;

- undan oldingi "o" unlisi "ridf";

- oxirgi "i" cho'ziq unlisi esa (u eski yozuvimizda ham yoziladi) vasldir.

Bu xil qofiya **vaslli mutlaq qofiya** deyiladi.

Yoki, shoirning quyidagi masnaviysida:

Uning xoki fazilatdan qorilgan

Xudo in'omidan xossa yaralgan ²

baytida "qorilgan - yaralgan" qofiyalaridagi "l" undoshi raviy;

- undan keying "g" undoshi – vasl,

- qisqa "a" unlisi (u eski yozuvda yozilmaydi) – nafoz;

- oxirgi "n" undoshi – huruj hisoblanadi;

- raviydan oldingi unli esa "tavjih" deyiladi

¹ Buxoriylar bo'stoni. S.Vohidov. Yozuvchi. T. 1998. 152-bet

² Buxoriylar bo'stoni. S.Vohidov. Yozuvchi. T. 1998. 153-bet


va qofiyalar **mujarrad qofiya**, yoki **hurujli mutlaq qofiya** deb yuritiladi.

Demak, Abdurahmon Tamkin Buxoriy o'zbek mumtoz adabiyotining nazariy asoslaridan, aruz she'r ilmidan mukammal darajada xabardor bo'lgan va ulardan ustalik bilan foydalana olgan. Hatto, Abdurahmon Tamkin Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan paytlarida, ustoz sifatida, ilm toliblariga, shogirdlarga bu haqda yaxshigina saboq bera olgan.

Bilamizki, qofiyaning yana bir ko'rinishi "mufrad" (ridfli) qofiya hisoblanadi. A.Tamkin ijodida mufrad qofiyaning go'zal qo'llanishini ko'rish mumkin. Aruzda raviydan oldin cho'ziq unlilardan biri kelgan qofiya "mufrad" qofiya deb nomlanadi. Cho'ziq unli esa "ridf" deb ataladi.

Masalan:

"Ey dilu dida sharm agar dori lab bu band az talotim guftor
Gar turo roh nest baxurshid himmati hanchu xuri nador"¹



Baytdagi "guftor - nador" so'zlari qofiyadosh so'zlar bo'lib, raviy "r" undoshi, "o" unlisi ridf bo'lib kelgan. Bayt esa mufrad qofiya asosida hosil qilingan.

Yoki;

"Ko'p pand berdi menga bu zabun zamon

Ilm tahsili deb yutdim qancha qon"²

Bu baytda esa, "zamon - qon" so'zlari ohang hosil qilgan bo'lib, "n" undoshi raviy, "o" unlisi ridf sanaladi va bayt mufrad yoki ridfli qofiya asosida yuzaga kelgan.

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 4- b varaq

² Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 2- b varaq


Ba'zan cho'ziq unli bilan raviy orasida yana bir undosh takrorlanib kelishi aruz ilmida "ridfi zoyid" deb ataladi. Bunday usulni qo'llagan shoir "ridfi zoyidli mufrad qofiya" qo'llagan bo'ladi. A.Tamkin ijodida bunday qofiya turini ham uchratish mumkin.

Shuningdek, A.Tamkin "muqayyad" ya'ni "qaydli qofiya"ni ham keng qo'llagan. Buday qofiyalarda qo'sh undosh qisqa unlidan so'ng keladi va qisqa unli "hazv", raviydan oldingi undosh "qayd" deb aytiladi.

Qarang:

"Arz niz az lutfi o' shud durr ast

Che shaybu faroze che boloyi past" ¹



Bunda "ast - past" so'zlari ohangdoshlik hosil qilgan:

"t" - raviy;

"s" - qayd;

"a" - hazv deyiladi.

Izoh: Ayrim manbalarda muqayyad qofiyani "raviy bilan tugagan qofiya" deb ham aytiladi. Bir qaraganda bu ham to'g'ri, lekin aruz shunday she'r tizimiki, unda har bir hijo yoki tovush qaysidir vazifani bajaradi hamda shoirning bu sohadagi ilmidan darak beradi.


A.Tamkinning qo'limizdagi devoniga kirgan she'rlarida qofiyaning murakkabroq tuzulishiga ega bo'lgan "muassas" (ta'sisli) qofiya namunalarini ham uchratish mumkin.

Muassas qofiya shaklida **faqat** cho'ziq "o" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli kelishi kerak. Ulardan cho'ziq "o" unlisi – "ta'sis", undosh "daxil" deb, raviy oldidagi qisqa unli esa "ishbo'" deb aytiladi.

Masalan, A.Tamkinning quyidagi baytida :

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qo'lyozmalar fondi. №337. 2- a varaq

“Muhammad sarvar taxti jalolat
Rasid dar avji gardun bemalolat”¹



“jalolat - bemalolat” soʻzlari qofiyayi muassas boʻlib:

- Choʻziq “o” unlisi – taʼsis;
- “l” undoshi - daxil;
- “a” qisqa unlisi – ishbo;
- “t” undoshi esa raviydir.

Xulosa qilib aytganda, asrlardan buyon anʼanaga aylanib qolgan zullisonaynlik hodisasining Buxoroda sobiq shoʻro hukumati davrida tanazzulga yuz tutishi xalqning oʻz tarixiy meʼrosidan bebahra qolishiga olib keldi. Natijada, sharq sheʼriyati ayniqsa, fors-tojik adabiyoting eng koʻp tarqalgan lirik turlari: gʻazal, ruboiy, masnaviy kabilarning oʻz egalariga yetib bormaslik holatlari yuzaga keldi. Bu- ikki tilda ijod qilgan Abdurahmon Tamkin ijodi uchun ham xos boʻldi. Biz bugun shoirning goʻzal ijodini, ibratli gʻoyalarini xalqimizga yetkazib berishdek ishni amalga oshirishga jazm etdik. Zero, mamlakatimiz ravnaqi uchun nafaqat shaklan balki, ruhan, qalban, fikran sogʻlom avlodni tarbiyalashdek ulugʻvor ishda A.Tamkin ijodiyoti munosib oʻrin tuta oladi. Faqat uni oʻquvchiga yetkaza bilishimiz kerak.

Tamkin ijodiga nazar solar ekanmiz, uning botiniy va zohiriy tahayyulini oʻzida ifoda etgan taxallusini nazardan chetda qoldirib boʻlmaydi.

Tamkin soʻzining lugʻaviy va etimologik maʼnosi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”²da quyidagicha berilgan.

- a) Tamkin soʻzi etimologik jihatdan arabcha boʻlib,
“mustahkamlash, mahkamlash” yoki “imkoniyat”, “haq-
huquq berish” kabi maʼnolarni ifodalaydi;

¹ Tamkin devoni. Toshkent. Sharqshunoslik intituti qoʻlyozmalar fondi. №337. 3- b varaq

² Oʻzbek tilining izohli lugʻati. 4 tomlik. Toshkent.

b) Tamkin soʻzining maʼnoviy xususiyatlariga diqqat qaratadigan boʻlsak, bu soʻz koʻp maʼnoli soʻz boʻlib, birinchi maʼnosi – “Salobat, savlat, savlatlilik”- maʼnolarini ifodalasa; Ikkinchi maʼnosi esa – “Sabr, qanoat, ogʻirlik, vazminlik” maʼnolarini ifodalaydi;

Tamkin soʻzi soʻz tarkibi jihatidan ikki qismdan iborat: Tamkin qismlaridan iborat boʻlib, bu soʻz til taraqqiyoti natijasida yahlitlanib qolgan. Oʻzbek tilida uning maʼnodoshi sifatida “sokin” soʻzini keltirish mumkin.

Masalan: “Qoʻrqmang, - dedi Asrorqul tamkin ovozda; u sirtdan vazmin koʻrinardi”¹
Tamkin soʻzining antonimi sifatida “joʻshqin” soʻzini keltirish mumkin.

Tamkin soʻzining paronimi va shakldoshi yoʻq, lekin tamkin soʻzi koʻp maʼnoli soʻz hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan shakliy – lisoniy istilohlar tamkin soʻzining zohiriy talqini boʻlib, bu soʻz Abdurahmon Tamkin Buxoriy ijodida taxallus sifatida shoirning nafaqat suvrat shaklini, balki uning siyrat shaklini ham bor boʻyicha ifodalaydi.

“Tamkin” soʻzi “Alisher Navoiy qomusiy lugʻati”da ² ham arabcha soʻz sifatida berilgan boʻlib, “joylamoq”, “mustahkam etmoq”, “vazminlik”, “viqor” degan maʼnolarni ifodalaydi. Demak, Tamkin soʻzi axloqiy fazilatlaridan biri insonning yuksak maʼnaviyati, viqor va ulugʻvorligini bildiruvchi tushuncha. Taʼsavvuf tilida esa valiylik maqomining soʻngisi, sayr fillohning ibtidosini bildiradi.

“ Sharhi manozil us-soirin”da berilishicha, Tamkin – talvinning kamolga yetganidan keyin zohir boʻladigan maqomdir. Talvin – ilohiy sifatlar mushohadasidan hosil boʻlsa, Tamkin – Zot tajalliysining hosilasidir deyiladi.

Talvin dil botiniy sifatlar bilan ziynatlanganda hosil boʻladi, Tamkin esa dil Ruh sifati bilan sifatlanganida istiqomat topadi.

¹ N.Qilichev, “Yorongul” asari.

² “ Alisher Navoiy qomusiy lugʻati”A.Qayumov, S.Gʻaniyeva, A.Mansur, M.Imomnazarov va boshqalar. Sharq. 2016-yil 480 bet. 16- bet

Tamkin maqomi paydo bo'lgach, hech qachon yo'qolib ketmaydi. Tasavvufda Tamkinning uch darajasi bor:

- birinchi daraja murid Tamkini bo'lib, unda sihhati qasd (Allohga tavajjuh qilmoq, undan o'zgaga nazar solmaslik), lam' i shuhud (ilohiy jazba), vus'ati tariq (shak-shubhadan xoli va mushohada nuri-la munavvar to'g'ri yo'l) e'tiborga olinadi;
- ikkinchi daraja soliklar Tamkini bo'lib, sihhati inqito' (Allohdan o'zga barcha narsalardan aloqani butkul uzish), barqi kashf (ilm –martabasidan kashf martabasiga ko'tarilish), safoi hol (bilmoqdan anglamoq, mohiyatga yetmoq bosqichiga yuksalish) bu darajaning alomatlaridir;
- uchinchi daraja oriflar Tamkini bo'lib, jam' va huzur maqomiga yetishmoqdir¹.

Uchinchi daraja "Soqiynoma"ning o'n to'qqizinchi bobida quyidagi misralar bilan ifodalangan:

Soqiyo, tut qadahi sultoniy,

Ichida rohi aning rayhoni...

Tut angakim, ishi bo'ldi tamkin²,

Oti sulton, o'zi darvishoyin.

Demak, Abdurahmon Buxoriy Tamkin so'zini taxallus sifatida tanlar ekan, uning botiniy va zohiriy ma'nolarini chuqur mushohada etib, o'zining, nafaqat, taxallusi, balki hayot yo'lining, umr mazmunining, ijod olamining ibtidosi va intixosi sifatida qabul qildi va o'zini zamona kishisi sifatida hamda Xalloqi olamning quli sifatida angladi. Shuning uchun butun umrini ilmga, ma'rifat tarqatishga, ijodga va shu orqali Haqqa bag'ishladi. Shoirning kamtarona va halimlik bilan o'tgan umri buning hosilasidir.

Ko'rinadiki, A.Tamkinning ijod yo'li, yashagan davri, ijtimoiy munosabatlari, an'anaviy sadoqati, ilg'or g'oyalarga intiluvchanligi u tanlagan taxallusda to'liq namoyon bo'ldi.

¹ "Alisher Navoiy qomusiy lug'ati" A.Qayumov, S.G'aniyeva, A.Mansur, M.Imomnazarov va boshqalar. Sharq. 2016-yil 480 bet. 16- bet

² "Alisher Navoiy qomusiy lug'ati" A.Qayumov, S.G'aniyeva, A.Mansur, M.Imomnazarov va boshqalar. Sharq. 2016-yil 480 bet. 16- bet

Tamkin nafaqat tabib sifatida insonlar dardini , bilaks yangi olam bilan yuzlashayotgan olam, mamlakat, millat dardini ham o'z asarlari orqali keng fikrlilik bilan shifolashga urindi, biroq "muhit to'fonida chirpirak" bo'lib aylansada, uning ilg'or fikrlari o'z asarlarida yangicha qiyofa kasb etd.

U zulmat bag'riga sochilgan. Uni hosil qilgan xilqat fanda hozirgacha to'liq o'rganilgan emas. Uning sirti yorug', ichi esa cheksiz qorong'u olam. Tafakkur haligacha ichkarisiga kira olmagan. Hajmi million-million mikro millimetrlardan ham kichik. Hatto eng zamonaviy kompyuter zarrabini ham uning faqat harakatini sezadi, xolos. Qancha zamonlardan beri odamzot fikrlari unda tarqalib, adashib yuribdi. Tezligiga bizga ma'lum tabiatda hali hech narsa yeta olmagan. U yorug'lik...

Yog'du tushgan qalbdan g'aflat zulmati chekinadi. Inson ko'ksida momaqaldirloqlar gumburlaydi, chaqinlar chaqnaydi, yam-yashil maysalar unib chiqmagan joy qolmaydi, buloq suvlari jilg'alarni to'ldiradi, tafakkur tegirmoni kecha-kunduz to'xtovsiz ishlay boshlaydi.

Inson qalbi, jamiyat hamisha yog'duga muhtoj. Holbuki, atrof ularga to'lib-toshib yotibdi...

"Matoli' ul-foxira va matolib uz-zohira" asarida keltirilishicha:

"Abdurahmon Buxoriy, "Tamkin" taxallusi bilan ijod qilgan. Sho'rolar inqilobidan oldin Dor ush-shifo madrasasida mudarris bo'lgan. Bo'lajak shifokorlarga tibbiyot fanidan ta'lim berardi.¹

Abdullaxoja Abdiy esa keltiradi: "Ajoyib ta'bi bor edi, gohida hajvga ham kirishib ketardi", deb yozadi va uning g'azallaridan namunalari keltiradi"².

O'zR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida Abdurahmon Tamkin Buxoriyning bir nechta asari saqlanadi.

I. "Ruboiyati Tamkin", №136, 111 varaq, 23,5x17,5 sm. Muallif dastxati, hijriy 1320 yili (1902 – 1903) tugallangan.

¹ "Matoli' ul-foxira va matolib uz-zohira"

² Abdullaxoja Abdiy. Tazkirat ush-shuaro. – Dushanbe: Donish, 1983. – B.67-69.

II. “Jaraid” (Sahifalar), №2877 raqami bilan qayd etilgan, 85 varaq, 25x17 sm. Shoirning kundalik daftari, nasriy matnlar va she’rlari o’rin olgan. Hijriy 1323 yili (1905) yozilgan.

III. Bayoz, №12354, bu to’plamda “noe’tibor qilma mani” radifli muxammasi berilgan (177b – 178a).

Abdurahmon Tamkin tarjimai holiga oid ma’lumot ko’p emas. Tibbiyot madrasasi bilan bog’liq faoliyati uning hayot manzarasi bilan tanishishga imkon beradi. “Dor ush-shifo” madrasasi Buxoroda tabobat sohasi mutaxassislarini tayyorlashga ixtisoslashgan maxsus oliy o’quv yurti edi. Unda uchinchi darajali oliy toifaga mansub banoras to’nli mudarris dars o’tgan¹.

Vaqfli edi, hujjati saqlanib qolgan.

Hujjatda ta’kidlanishicha: “Hazrat Abul Muzaffar sayyid Subhonquli Muhammad Bahodurxon ibn hazrat Abul Fath sayyid Nadr Muhammadxon hijriy 1108 yili zulqa’da oyida (milodiy 1697 yil may – iyun) “Dor ush-shifo” madrasasini qurib bitkazadi”².

U pishiq g’ishtdan bunyod etilgan. Oliy gumbazlari va ravoqlari, ichki va tashqi hovlisi, tib ilmi o’qitiladigan darsxonasi, yozgi masjidi va o’n sakkizta hujrasi bor edi³.

Vaqf hujjati shartiga ko’ra, madrasaga Turonning ikki nafar eng bilimdon ilg’or tabibi mudarris bo’lishi kerak edi. Qozi ulardan birini mutavalli vazifasiga tayinlagan. Mutavalli vaqf mulki tushumidan ushr (o’ndan bir) va mudarrisligi uchun alohida ulush olgan. XX asr boshlarida “Dor ush-shifo” madrasasi mudarrisining yillik maoshi 55 tilla edi. Mazkur axborotlar Abdurahmon Tamkinning jamiyatda egallagan o’rni, moddiy ahvoli anchagina yaxshi bo’lganidan darak berayotir.

¹O’zR MDA. I-126. 1-1995-8.

² O’zR MDA. I-323. 113-3; 118. “Dor ush-shifo” madrasasi vaqf hujjati.

³Ayrim manbalarda u 15 hujra deb ko’rsatilgan (Asomi madoris. – B. 406b; Tarixi Buxoro va tarjumat ul-ulamo. – B. 12). Ehtimol, XIX asrning ikkinchi yarmidan uning ba’zi hujralari buzilgandir. Biroq N.Xanikov ularni 40 hujra deb yozadi (Opisaniye Buxarskogo xanstva. – SPb., 1843. – S.86). Ushbu madrasa haqida A.Irisov, A.Nosirov, I.Nizomiddinov hamkorligida Subhonqulixoniga bag’ishlab yozilgan maqolada ham qisqa ma’lumot berib o’tilgan. Unda madrasaning o’n sakkizta hujradan iboratligi ta’kidlanadi va mazkur o’quv dargohi “Buq’ai dor ash-shifo” deb ataladi (Subhonqulixon // O’rta osiyolik qirq olim. – Toshkent: Fan, 1961. – B.93)

Hijriy 1329 yil rabi' us-soniy oyida (1911 yil aprel) Mirzo Nasrulloh qushbegi nomiga yozilgan arznomada madrasa ahli o'quv binosi holati yomon ahvolda ekanidan shikoyat qiladi¹. Bu paytlarda "Dor ush-shifo" madrasasida boshqa mudarrislar dars berardi.

Buxoro arki qarshisidagi Boloyi hovuzga borganimda, qachonlardir undan uncha uzoqda bo'lmagan "Dor ush-shifo" madrasasi o'rnini ham qidirgandim. U XX asr o'rtalarida qarovsizlikdan xarob ahvolga tushib qolgani uchun "mablag' yetishmasligi" bahonasi bilan buzib yuborilgan.

Madrasa bo'lganida Buxoro qal'asi devorlari qulatilmasdi, mang'it hukmdorlari xilxonasi, So'fi Olloyorning ustozlari Hoji Habibulloh va uning atrofidagi ulug'lar mozori buldozerlarda tekislanib, o'rniga futbol maydoni qurilmasdi...

Abdurahmon Tamkin hayotiga ulangan satrlarni o'rganish asnosida, birdan bizga faxrli Buxoro "yog'dulari" haqidagi ma'lumot ma'lum bo'ldi. Tamkin ularni "Matoli' ul-foxira va matolib uz-zohira" deb atagan ekan.

Bu asarning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida asosiy jamg'armasida №8245 raqami bilan belgilangan yagona nusxasi saqlanadi.

Muqovasi qizil rangli qattiq qog'oz, tili forsiy, xati nasta'liq, 455 varaq, 31x23 sm, hijriy 1334 yili (1916) Buxoroda yozilgan. Matn tuzilishi, tuzatishlar va qo'shimcha izohlar, xatning Tamkin kundaligidagi bilan mos kelishi asar muallif dastxati bilan yozilganidan darak beradi.

Muallif 19a sahifada asar nomini keltiradi va u 44 bobdan iborat ekanini yozadi. Boblar "matla'" so'zi bilan ifodalangan. Asarning oxirgi qismi tushib qolgan. Matn o'ttiz sakkizinchi "matla'"da tugaydi. Har bir matla' tarkibi namoye (topish), tajalli (ko'rinish) va sha'sha'e (yarq) kabi alohida qismlardan tashkil topgan. Matnlar mazmuniga ko'ra, asar nomini o'zbek tiliga "Faxr

¹ Katalog Sredneaziatskix jalovannykh gramot iz fonda instituta Vostokovedeniya im. Abu Rayxana Beruni Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. – Germany, 2007. №57

yog'dulari va istaklar jilvalari" deb o'g'irsa ham bo'ladi. Shu tariqa bitta "matla" bitta "yog'du"ga aylandi.

Asar tarixiy-jo'g'rofiy kitoblar turkumiga kiradi. Ayrim mutaxassislar muallif uni yozishda biror qat'iy qoidaga amal qilmagan, deb hisoblashadi. Ma'lumotlar – "yog'du"lar (matla') munchog'iga tizilgan. Shu tariqa muallif yirik hajmdagi axborotlarni o'ziga xos yo'l bilan tartibga solishga urinadi.

Abdurahmon Tamkin "Matoli' ul-foxira" asari hijriy 1334 yili (1915 – 1916) Amir Olimxon ibn Amir Abdulahadxon davrida yozilganini ta'kidlaydi (19a). Birinchi "matla" kutilmagan tarzda tallol, teba, tubalar tarixi bayoni bilan boshlanadi. Teba, tubalarda qabrlarning paydo bo'lishiga oid qiziqarli ma'lumotlar beradi (28b). Bu turkumdagi an'anaviy kitoblarni o'qib, tadqiq etishga o'rganib qolgan tadqiqotchi uchun mazkur holat ajablanarli tuyuladi. Aslida bu yerda taajjublanadigan hech narsa yo'q. 1870 yillardan mamlakatda matbuot sohasi shakllanishi munosabati bilan ommaga axborot yetkazishning yangi vositalari va usullari paydo bo'lgandi. XX asr boshlarida jadidlarning ma'rifiy harakati, dunyoni anglashga intilishi natijasida Turkiston o'quvchisi uchun dunyo ancha kengaygandi. Tarix yozish, axborot yetkazish yo'nalishidagi an'anaviy qarashlar yangi ijtimoiy munosabatlar asosida qayta shakllanadi. Shu holat Abdurahmon Tamkin asarida ham seziladi. Asarda kutilmaganda tepaliklar tarixining paydo bo'lib qolishi shularning ta'siridan edi.

Muallif o'n oltinchi "matla"da (116b) Ovrupodagi Islandiya, Italiya, Serbiya, Turkiya kabi davlatlar va bir qancha shaharlar, Yaponiyada sodir bo'lgan to'fon haqida axborot beradi. Milodiy 1783 sanada sodir bo'lgan dunyo voqealaridan so'zlaydi, jahonda ro'y bergan muhim voqealar va sanalar jadvalini keltiradi (121b-122a). U yilni ifodalashda biz o'rganib qolgan "milodiy" atamasi o'rnida "masihiy", "isaviy" so'zlarini qo'llaydi.

Asarda Buxoro shahri va tumanlari, mashhur tarixiy maskanlarga oid berilgan tarixiy ma'lumotlar qimmatlidir. Muallif Buxoro shahrida qadimda 360 guzar bo'lgan, deydi. 1334 yili (1915 – 1916) ularning soni 200 atrofida ekanini kichik guzarlar

qo'shilib, kattarishi va bitta nom bilan atalishi orqali izohlaydi. Masjidlar, xonaqohlar, madrasalar to'g'risidagi xabarlar bu yo'nalishga tegishli tarixiy hujjatlarni tadqiq va talqin etishda tadqiqotchiga katta ko'mak bo'ladi.

Buxoro tumanlari markazlari, qishloqlar va ularda istiqomat qilayotgan qavmlar, aholi soni, ziyoratgohlarga taalluqli axborotlari ahamiyati Buxoro shahriga tegishli xabarlardan sira kam emas. Bu fikr Buxoro davlatidagi Kesh, Nasaf, Chag'oniyon, Hisor kabi viloyatlarga doir ma'lumotlarga ham tegishlidir.

Muallif Samarqand shahri tarixiga ham to'xtaladi (266a-269a). U: "Samarqand shahrini arab qavmidan Samar ibn Afriqash istilo qilgach, uning devori va imoratlarini yer bilan bitta qilib tekislagan. Shu sababdan "Samarkand" nomi bilan mashhur bo'lgan. Arablar arabiyalashtirib "Samarqand" deyishgan", deb yozadi (267a).

Abdurahmon Tamkin "kand"ni forsiydagi "kandan" (kovlamoq, ko'mmoq, tekislamoq) so'zidan olingani va shahar nomi "Samar tekisladi" ma'nosini anglatishiga ishora qilayotir. Bu talqin tarixiy jihatdan o'zini oqlamasa-da, qiziqarlidir. Ayni paytda, u XX asr boshlarida mamlakat ziyolilarining ilmiy darajasini ham ko'rsatib turadi.

